

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM  
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XAYDAROVA SAYYORA CHINALIYEVNA**

**TA'LIM MAZMUNI VA UNI  
KOMPETENTSIYAVIY YONDASHUV  
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**MONOGRAFIYA**

“Ziyo nashr-matbaa”XK  
Guliston-2022 yil

**КБК:74.2**

**UDK:371**

**X-18**

Sayyora Haydarova. Ta'lim mazmuni va uni kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish/Monografiya/ - Guliston: "Ziyo nashr-matbaa"XK. 2022-yil. 96 bet.

### **Annotatsiya**

Ta'lim islohotlarini yanada chuqurroq va kengroq o'rganishda pedagogika va psixologiya fanlarining o'rni benihoya. Ta'lim-tarbiya jarayonida kompetentsiyaga asoslangan yondashuv talaba tomonidan bir-biridan ajratilgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni kompleksda o'zlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu monografiya ham aynan, o'qitish usullarini tanlash va loyihalash tegishli kompetentsiyalarning tuzilishi va ta'limda bajaradigan funktsiyalariga asoslanadi.

### **Аннотация**

Роль педагогики и психологии в более глубоком и широком изучении реформы образования огромна. Компетентностный подход в образовательном процессе предполагает не приобретение обучающимся знаний и умений, а их комплексное усвоение. В основу данной монографии также положена структура соответствующих компетенций по выбору и проектированию методов обучения и функций, которые они выполняют в образовании.

### **Annotation**

The role of pedagogy and psychology in a deeper and broader study of education reform is enormous. The competence-based approach in the educational process does not imply the acquisition of knowledge and skills by the student, but their comprehensive assimilation. This monograph is also based on the structure of the relevant competencies for the choice and design of teaching methods and the functions they perform in education.

### **Taqrizchi:**

**Y.A.Nurumbekova** - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ISBN – 978-9943-7337-9-4

Mazkur "Ta'lim mazmuni va uni kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish" nomli monografiya Guliston davlat universiteti Kengashining 2022-yil 31-maydagi №10-sonli yig'ilishi bayonnomasi qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

© "Ziyo nashr-matbaa" nashriyoti

© Sayyora Xaydarova

## MUNDARIJA:

Kirish.....4

### **I.TA'LIM MAZMUNI VA UNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY MASALALARI**

1.1.Zamonaviy ta'lim mazmuni va ta'limning tashkiliy shakllari.....7

1.2.Ta'limni standartlashtirish .....13

1.3. Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv.....23

### **II.TA'LIM MAZMUNI VA UNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI**

2.1.Uzluksiz va uzviy metodik tadbirlarni tashkillashtirish.....32

2.2.Uzluksiz va uzviy metodik tadbirlarni amalga oshirishda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati.....37

### **III.TA'LIM MAZMUNI VA UNI KOMPETEHTSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING EMPERIK O'RGANILGANLIGI...**

3.1.O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda ta'lim texnologiyalari.....43

3.2.Ta'limda kompetensiyaviy yondashuvda natijalar tahlili.....60

Glossariy.....87

Adabiyotlar ro'yxati.....95

## KIRISH

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv talaba tomonidan bir-biridan ajratilgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni kompleksda o'zlashtirishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan o'qitish usullari tizimi turlicha ta'riflanadi. O'qitish usullarini tanlash va loyihalash tegishli kompetensiyalarning tuzilishi va ta'limda bajaradigan funktsiyalariga asoslanadi.

Zamonaviy kadrlar oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri - malakali mutaxassislar sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan tarzda atrofidagilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsatishdir. Bu o'rinda inson ruhiyati qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya fanining o'rni va roli benihoya kattadir. Yosh avlodni yangicha ta'lim standartlari asosida, jahon talablariga javob beruvchi mutaxassislar qilib tarbiyalash ishi oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan yoshlar uchun yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari, risolalar tayyorlashning ham yangicha uslublarini talab etmoqda.

Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga tayanishlari talab etiladi. Bu borada ta'lim tizimida ijobiy muhitini shakllantirish, fan yutuqlari, o'qitish shakllarida maqsadlarni aniq belgilash asosida ko'zlangan natijaga erishish borasida «o'qituvchi-o'quvchi» va «o'quvchi-o'quvchi» o'zaro hamkorligini ta'minlash biz e'tirof etayotgan, uni maqbul yo'l deb qo'llayotgan innovatsion yondashuvni qaror toptirish asosida kechadi. Shu asnodagi pedagogik jarayonga innovatsiyalarni joriy etishimiz, ta'lim sohasidagi normativ-me'yoriy hujjatlar talablarini bajarish bilan bir qatorda yosh avlod tarbiyasiga vijdonan ma'suliyat, o'z ijodkorlarimizni baxshida etish, mamlakat-jamiyat manfaatlari yo'lida kasbiy burchimizni mohirlik va tinimsiz izlanishlarimiz mahsulida bajara olsakkina, albatta milliy pedagogikamizda hamkorlik yanada ravnaq topadi. Ushbu maqsadning ijobiy yo'nalish kashf etishi, shu nuqtai-nazardan ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'qituvchi-pedagoglarimizning mubolag'asiz asosiy vazifalaridan biridir. Aynan ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida o'quv-tarbiya jarayoniga innovatsiyalarni tadbiiq etish masalasi ta'lim

islohatlari to'g'risidagi hujjatlarda ayniqsa, kadrlar tayorlash milliy dasturida aniq qilib belgilangan.

Bunday dolzarb muammolarni yechish, avvalo milliy mustaqillik sharoitida ta'lim tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida uni yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Ta'lim muassasalarida barkamol shaxs tarbiyasining mazmun-mohiyati, maqsad- vazifalari, yo'nalishlari, ta'lim-tarbiya jarayonlarining uzviy bog'liqligi, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash shakllari va xususiyatlarini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish hamda bo'lajak pedagogik faoliyatda ushbu bilimlardan keng foydalanish, tajribalarni amaliyotda faol tadbiq etishni yo'lga qo'yishdan iborat. Shu sababli ham ushbu mavzu o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi.

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv ta'lim maqsadlari ish dunyosida qo'llanilishi mumkin bo'lgan vaziyatlarga ko'proq bog'langanligini anglatadi. Demak, kompetensiyalar «bir faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qobiliyat, bilishning tayyorligi va munosabat (xulq-atvor)ni o'z ichiga oladi. An'anaga ko'ra, ular mavzu, uslubiy va ijtimoiy kompetentsiyani ajratadilar. B.D. Elkoninning fikricha, "kompetentlik - bu shaxsning faoliyatga jalb qilish o'lchovidir". S.E. Shishov kompetentsiya kategoriyasini "bilim va vaziyat o'rtasida bog'lanishni o'rnatish, muammoga mos tartibni (bilim va harakat) topish imkonini beradigan bilimlar, qadriyatlar, moyilliklarga asoslangan umumiy qobiliyat" deb hisoblaydi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv talaba tomonidan bir-biridan ajratilgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni kompleksda o'zlashtirishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan o'qitish usullari tizimi turlicha ta'riflanadi. O'qitish usullarini tanlash va loyihalash tegishli kompetensiyalarning tuzilishi va ta'limda bajaradigan funktsiyalariga asoslanadi.

Ta'limni kompetensiyaga asoslangan yondashuv yo'nalishi bo'yicha modernizatsiya qilish jamiyatdagi ta'lim sohasidagi vaziyatga ta'sir ko'rsatadigan o'zgarishlar - jamiyatning rivojlanish sur'atlarini tezlashtirishga asoslanadi.

Natijada, maktab o'z o'quvchilarini maktabning o'zi kam biladigan hayotga tayyorlashi kerak. "2004-yilda birinchi sinfga kirgan bolalar taxminan 2060-yilgacha ishlashda davom etadilar.

XX asr o'rtalarida dunyo qanday bo'lishini nafaqat maktab o'qituvchilari, balki futuristlar uchun ham tasavvur qilish qiyin". Shu

bois maktab o'z o'quvchilarini o'zgarishlarga tayyorlashi, ularda harakatchanlik, dinamizm, konstruktivlik kabi fazilatlarni shakllantirishi kerak.

Jamiyatdagi yana bir o'zgarish, bu ham ta'lim tizimiga, shu jumladan maktablarga qo'yiladigan ijtimoiy talablar xarakteriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi - axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi.

# I. TA'LIM MAZMUNI VA UNI KOMPETEHSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY MASALALARI.

## I.1.Zamonaviy ta'lim mazmuni va ta'limning tashkiliy shakllari

**Ta'lim** — bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish. va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi.

Ta'lim haqida turli nazariyalar mavjud. Ba'zi nazariyalar Ta'limni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga bog'liq bo'lmagan hodisa sifatida baholasalar (qarang Pedotsentrizm), ba'zisi Ta'limning sinfiy xarakterga ega ekanligini, u jamiyatning har bir a'zorida muayyan siyosiy, falsafiy, axloqiy, huquqiy qarashlarni shakllantirish maqsadi sari karatilganligini ta'kidlaydi.

Ta'lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish — jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam beradi.

Ta'lim mohiyat-e'tibori bilan dars berish jarayonini, ya'ni pedagog (o'qituvchi) faoliyatini, umuman o'quvchining bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya'ni o'quvchi faoliyatini bildiradi. Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi — o'qituvchi va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatleri, dunyoqarashi, qobiliyati o'sadi. Ta'lim avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni ta'minlaydi: kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribalari yosh avlodga ta'lim orqali o'tadi.

Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida Ta'limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib borgan (qarang Pedagogika).

Ta'limning mazmuni uning vazifalaridan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimidir.

O`quvchi ilmiy bilim, ko`nikma va malakalarni egallash jarayonida aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiradi, dunyoqarashi, ahloqi shakllanadi, hayotga, mehnatga tayyorlanadi. Ta`lim mazmuniga insoniyat to`plagan barcha ijtimoiy tajribalar kiradi. Uning mazmuni, xajmi, ijtimoiy tuzumning iqtisodiy talab va ehtiyojlari, fan-texnika taraqqiyoti darajasi bilan bilimlar, hozirgi zamon fani, texnikasi, madaniyati, ishlab-chiqarishdagi yangiliklar kiritiladi. Ta`limning mazmuni o`zgaruvchan, u doimo yangilanib turadi.

Bugungi kunda ta`limning mazmuni O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida» gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» da belgilangan vazifalardan kelib chiqadi. Ta`lim mazmuni jamiyat umumiy o`rta ta`lim oldiga qo`yayotgan talab-buyurtma asosida belgilanishi kerak. Ya`ni shakllanayotgan inson nimani bilishi, o`rganishi, qanday insoniy fazilatlarga ega bo`lishi haqidagi savollarga javob berishi kerak.

Hujjat 1997 yildan buyon amal qilib kelayotgan eskirgan “Ta`lim to`g`risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida”gi qonunlarni almashtiradi.

Yangi qonunning asosiy farqlari haqida qisqacha:

**birinchidan**, ta`lim olish shakllarining tasnifi kengaytirildi: ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy); nazariy - ta`lim tashkiloti negizida, amaliy - ta`lim oluvchining ish joyida birga olib boriladigan dual ta`lim; oilada ta`lim olish va mustaqil ta`lim olish; katta yoshdagilarni o`qitish va ularga ta`lim berish; jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo`lgan bolalar (shaxslar) uchun inklyuziv ta`lim; eksternat tartibidagi ta`lim - o`quv dasturlarini mustaqil ravishda o`zlashtirishni o`z ichiga olib, uning yakunlari bo`yicha ta`lim oluvchilardan davlat ta`lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o`tish; mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

**ikkinchidan**, Vazirlar Mahkamasi, Ta`lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Ta`lim inspeksiyasi), Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi, shuningdek soha vazirliklari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari tafsilotlari bilan aniqlashtirildi.



**uchinchidan**, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining huquqiy maqomiga ko'proq e'tibor qaratilgan:

ta'lim tashkilotlari – ularni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish, ustavga talablar;

pedagogik xodimlar, ta'lim oluvchilar, ularning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari – huquqlar, majburiyatlar va kafolatlar bo'yicha. Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari belgilangan.

**to'rtinchidan**, davlat ta'lim standartlari va talablari, o'quv jarayoniga o'quv rejalari va dasturlarini, ta'lim sohasiga eksperimental va innovatsion faoliyat ta'limni joriy etish bilan bog'liq masalalar tartibga solingan. O'qishga qabul qilish, jumladan maqsadli qabul qilish mexanizmi bayon etilgan;

**beshinchidan**, davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish dastaklari reglamentlangan:

a) birinchilarga quyidagilar kiradi:

nodavlat ta'lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash – litsenziyalar Ta'lim inspeksiyasi tomonidan cheklanmagan muddatga, har bir ta'lim turi uchun alohida beriladi;

ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish – Ta'lim inspeksiyasi tomonidan 5 yil muddatga amalga oshiriladi. Bunda nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziya olingan kundan e'tiboran 5 yil davomida akkreditatsiyadan o'tgan deb hisoblanadi, bu muddat tugagach, ushbu attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tkaziladi. Davlat akkreditatsiyasidan o'tgan tashkilotlar maxsus reestrga kiritiladi, bu haqdagi ma'lumotlar Ta'lim inspeksiyasining saytiga joylashtiriladi; xorijiy davlatda 1992 yil 1 yanvardan keyin olingan ta'lim to'g'risidagi hujjat tan olish, shuningdek ta'lim sohasidagi rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish. Tan olish va apostil qo'yish ham Ta'lim inspeksiyasi vakolatiga kiradi;

b) Ta'lim inspeksiyasi quyidagilarga haqli: nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini nazorat qilish va monitoringini amalga oshirish – biznes-ombudsmanni xabardor qilgan holda;

ta'lim tashkilotlari tomonidan berilayotgan ta'limning mazmuni va sifati ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga nomuvofiqligini aniqlagan hollarda – ularni bartaraf etish yuzasidan ularga taqdimnomalar kiritish. Taqdimnoma bajarilmagan taqdirda - ta'lim tashkilotining davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikatini bekor qilish.

Ta`lim jarayoni o`quvchilarda: bilimdonlik, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tirishqoqlik, tashabbuskorlik, ziyraklik, intizomlilik, qiziquvchanlik kabi xislatlarni shakllantiradi. Tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuriga munosabati ham ta`lim mazmunini belgilashga, ta`lim olishga yordam beradi. O`quvchi o`zida shakllangan munosabatlarga asoslanib tevarak-atrofdagi narsalarni, voqealarni baholaydi; oq-qorani ajratadi, ilmiy va g`ayriilmiy hodisalarning farqiga boradi.

Ta`lim mazmuniga kiritilgan o`quv materialiy yuqori ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo`lishi, ta`lim jarayonining imkoniyatlariga mos bo`lishi (ta`limni tashkiliy shakllari, qonuniyatlar, tamoyillari, usullari, o`quvchilarning umumiy rivojlanishi darajalariga, maktabning o`quv-metodik hamda moddiy holati hisobga olinishi) lozim.

Shuningdek, ta`lim mazmunini belgilashda maktabda o`qitiladigan barcha fanlarning o`ziga xos hususiyatlari va fanlararo aloqa hisobga olinishi shart.

Ta`lim mazmuni ilmiy asoslagan DTS, o`quv rejalari, dasturlari va darsliklarida ifodalanadi. Xususiy metodika nuqtai nazari bo`yicha «ta`lim» aynan bir o`quv fani asosida o`qitish va o`qish faoliyatlarini birgalikda amalga oshirishni anglatadi.

Pedagogika fani nuqtai nazaridan qaralganda esa «ta`lim» o`qituvchi va o`quvchi ta`sirining majmui bo`lib, uning natijasida o`quvchining aqliy salohiyati (intellekti), ruxiyatini rivojlantirish ma`nosini bildiradi.

O`qitish eng qadimiy faoliyat turlaridan biridir. U mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida alohida kasb sifatida ajralib chiqqan. Kishilar o`qituvchilik kasbiga maxsus tayyorlanadi.

Ta`lim ma`lum bosqichlar asosida amalga oshiriladi: o`rganiladigan narsa- hodisalarni bevosita yoki bilvosita idrok etish; oldin o`rganilgan bilimlarni xotiraga, ya`ni esga tushirish; bilimlarni amalda qo`llash, fikrlash, ularning umumiy va xususiy alomatlarini ajratish.

Hozirgi an`anaviy maktabda asosiy e`tibor bilimlarni o`zlashtirishga, ko`nikma va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Bu o`quv- tarbiya jarayonini tashkil etish tajribasining eng zaif tomonidir. Ma`lumot mazmunining barcha elementlariga rioya qilib, ta`lim jarayonini tashkil etish yo`li bilangina har tomonlama rivojlangan yoshlarni yetishtirib chiqarish mumkin.

Ta`limning asosiy mazmunini uning vazifalari oydinlashtirib beradi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog`lik bo`lgan vazifalar

kiradi. Bu vazifalar ichiga ilmiy va texnikaviy bilimlar, hamda ular bilan bog'lik bo'lgan malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy va madaniy qadriyatlarda hayotning ma'nosi, jamiyatda insonning tugtan o'rne, ta'lim-tarbiyasi, odob - axloqi haqidagi xikmatli fikrlar borki, bular bugungi halq ta'limi taraqqiyoti uchun va milliy maktab yaratishi borasida yoshlarimizda insonparvarlik, poklik, imon-e'tiqod, muruvvat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, millatlararo do'stlik munosabatlari, qaxramonlik, mardlik singari tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Bilim-tabiatda, jamiyatda, inson ongida amal qilinadigan qonuniyatlarning turli belgilar (masalan, yozuv) vositasida moddiylashtirilgan ko'rinishidir. Bilimlar qarash, g'oya, ta'rif, qoida, aniqlik, aksioma, teorema, omil va boshqa shakllarda beriladi;

Ta'lim jarayoni tarkibiga ko'ra, o'ta murakkab didaktik hodisadir. Agar bu jarayonga o'qituvchi faoliyati nuqtai nazaridan yondoshsak, «o'qitish jarayoni», o'quvchilar faoliyati nuqtai nazaridan, esa «o'quv jarayoni» iboralari ishlatiladi.

O'qitish eng qadimiy faoliyat turlaridan biridir. U mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida alohida kasb sifatida ajralib chiqqan. Kishilar o'qituvchilik kasbga maxsus tayyorlanadi.

Ta'lim ma'lum bosqichlar asosida amalga oshiriladi: o'rganiladigan narsa- hodisalarni bevosita yoki bilvosita idrok etish; oldin o'rganilgan bilimlarni xotiraga, ya'ni esga tushirish; bilimlarni amalda qo'llash, fikrlash, ularning umumiy va xususiy alomatlarini ajratish.

Ta'lim mazmuni uning maqsadiga muvofiq, ijtimoiy shartsharoit, fan va texnika, san'at holati va shu kabini hisobga olgan holda belgilanadi. Kasbhunar kollejlari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlaridagi Ta'limning mazmuniga umumiy ma'lumotdan tashqari muayyan kasb va mutaxassislik uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, malaka va ko'nikmalar ham kiradi. Ta'lim mazmuni o'quv reja va dasturlari, darslik va boshqalarda yoritiladi. Ta'limda qo'yilgan maqsadga erishish uchun turli metod, vosita, tashkiliy tizim va shakllar (ma'ruza, suqbat, tajribalar o'tkazish, ko'rgazmali qurollarni qo'llash, kuzatish, mashq va shu kabi)dan foydalaniladi. O'quv jarayonida texnik vositalar (kino, televideniye, radio, kompyuter, EHM va boshqalar)ni keng qo'llash ta'lim metodini ishlab chiqishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ta'limni tashkil etishning quyidagi turlari mavjud: umumiy ta'lim, alohida (individual) ta'lim, tashkiliy ta'lim, sinfdars ta'limi, kurs

tizimi ta'limi va boshqa turlari mavjud. Hozirgi sharoitda ijtimoiy talablar, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojlariga muvofiq ta'lim tobora takomillashtirilib, yangi metod va shakllari ishlab chiqilmoqda. Xususan, ta'limning keng umumiy ma'lumot asosida kasbiy ixtisoslashishning ahamiyati tobora oshmoqda, ommaviy kommunikatsiya vositalari — radio, televideniye, film, kompyuter, vaqtli matbuotdan, shuningdek, o'z ustida ishlashning turli shakllaridan foydalanilmoqda.

Hozirgi an'anaviy maktabda asosiy e'tibor bilimlarni o'zlashtirishga, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Bu o'quv- tarbiya jarayonini tashkil etish tajribasining eng zaif tomonidir. Ma'lumot mazmunining barcha elementlariga rioya qilib, ta'lim jarayonini tashkil etish yo'li bilangina har tomonlama rivojlangan yoshlarni yetishtirib chiqarish mumkin.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Ta'lim mazmuni va mohiyatini yoriting.
2. Yangi qonunning asosiy farqlari haqida bilimlaringizni qisqacha bayon eting.
3. Ta'lim jarayoni nima?
4. Ta'lim jarayoni o'quvchilarda qanday xislatlarni shakllantiradi?
5. Ta'lim jarayoni tarkibiga ko'ra, qanday hodisa?
6. Hozirgi an'anaviy maktabda asosiy e'tibor bilimlarni o'zlashtirishga nimalarga e'tibor qaratilmoqda?
7. Ta'lim mazmuni ilmiy asoslagan xolda nimalarda aks ettiriladi?
8. Ta'lim mazmuni uning maqsadiga muvofiq nimalarni e'tiborga olgan xolda olib boriladi?

Mavzuga oid tushunchalar taxlili

Mavzuga oid tushunchalar	Tushunchalarning mazmuni	Qo'shimcha ma'lumotlar
Ta'lim		
Ta'lim mazmuni		
o'qitish jarayoni		
qadimiy faoliyat		
reglamentl		
Davlat ta'lim standartlari		
An'anaviy maktab		



## **I.2. Ta`limni standartlashtirish**

Ta`limni standartlashtirish-insoniyatning ijtimoiy ongida ro`y bergan tub o`zgarishlar tufayli kelib chiqqan zaruratdir. Chunki, axborotlar almashinuvi maksimal chegaraga yetgan davrimizda dunyoning bir burchagida yashayotgan kishi ikkinchi qutbda sodir bo`layotgan voqealarni bilibgina qolmay, ularning ne boisdan aynan shu tarzda ro`y berganini anglashi va his qilishi zarurdir. Bir sayyorada bir vaqtda yashab turib, bir-birini tushunmaslik ba`zan insonlar o`rtasidagi munosabatlarni boshi berk ko`chaga kiritib qo`yishi mumkin. Shuning uchun ham iqtisodiy axvoli va taraqqiyot darajasi turlicha bo`lgan davlatlarda yashovchi barcha kishilarning fikrlash darajasini iloji boricha bir xil holatga keltirish ehtiyoji paydo bo`ldi. Bu holat ta`lim standartlari deb atalmish tushunchani yuzaga chiqardi.

Standart-ta`limda yaratilgan me`yoriy reja, dastur, darsliklarni o`zlashtirish ekvivalenti, ya`ni ta`lim mazmunini o`zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqishda o`quvchini haddan tashqari zo`riqtirib yubormaslik talablariga rioya qilish, ya`ni u o`quvchi yoshiga mos, uni o`zlashtirishga qurbi etadigan darajada bo`lishi kerak. Bunda albatta, ta`lim oluvchining qiziqishi, xoxishi, ehtiyoji hisobga olinishi lozim. Ta`lim standartlarini o`zlashtirishda shaxsga muhim ahamiyat berilishi, unga yakka tartibda yondashilishi maqsadga muvofiqdir. Standartlarni o`quv jarayoniga tatbiq etishdan oldin o`ta puxtalik bilan

tajriba-sinovdan o`tkaziladi va shu asosda bosqichma-bosqich o`quv jarayoniga kiritib boriladi.

Davlat va jamiyat ta`lim muassasalari oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalar qo`yayotgan ekan, o`sha muassasalar tomonidan tayyorlanadigan kadr egallashi lozim bo`lgan ijtimoiy sifatlarining minimal chegarasini ham ko`rsatib berishi tabiiydir. Tarbiyalanuvchi yoki ta`lim oluvchilar egallashi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma, malaka yoxud ma`naviy sifatlarining eng quyi miqdori ilmiy asoslarda belgilab berilgan rasmiy pedagogik hujjat-davlat ta`lim standarti hisoblanadi. Standartlarda belgilangan natijalarga erishilmasa, yo o`sha ko`rsatkichlarni egallay olmagan bola, yoxud yoshlarda muayyan miqdordagi bilim, ko`nikma, malaka va ma`naviy sifatarni shakllantira olmagan pedagogikani mukammal deb bo`lmaydi.

Bundan ko`rinib turibdiki, davlat ta`lim standarti (DTS) nazorat vositasi, ayni vaqtda, ta`lim muassasalarida ko`zlangan ko`rsatkichlarni qo`lga kiritish uchun zarur bo`lgan sharoitni belgilash o`lchovi hamdir. Davlat ta`lim standartlarining ko`rsatkichlari qo`lga kiritish uchun zarur bo`lgan sharoitni belgilash o`lchovi hamdir. Davlat ta`lim standartlarining ko`rsatkichlari amaldagi mavjud ta`lim mazmunidan emas, balki shakllantirilayotgan o`quvchiga singdirilishi lozim bo`lgan sifatlarining jahon bo`yicha zarur deb hisoblangan miqdoridan kelib chiqadi.

Davlat ta`lim standartlarining ikki asosiy vazifasini alohida ta`kidlab ko`rsatish lozim. Bunday standartlar umumiy o`rta maktabda o`quvchilarga beriladigan ta`lim mazmunining majburiy minimumini hamda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo`yiladigan talablar majmuasini belgilab beradi. Ta`lim mazmunining majburiy minimumi o`quv dasturlari va darsliklarda to`liq o`z ifodasini topishi shart. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga ko`ra o`quvchi muayyan bosqichda egallashi shart bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarning minimal miqdori belgilanadi.

Ta`lim-tarbiya jarayoniga DTS ni joriy etish talablari rivojlangan g`arb mamlakatlari tajribasiga asoslanadi. Ammo, shuni ham aytish kerakki, hali dunyodagi birorta jamiyatda ta`limni standartlashtirish keng ko`lamda amalga oshirilayotgani yo`q. Chunonchi, mazkur yumushga birinchi bo`lib qo`l urgan Fransiyada bu ish hanuzgacha sinov darajasida, AQSHda esa DTS yaratishga endigina kirishilmoqda. Yaponiya va Germaniya ta`lim muassasalarida mazkur muammoni hal etish rejalashtirish bosqichida turibdi. O`zbekistonda ta`lim standartlari

masalasiga davlat miqyosida yondashildi va uni ilmiy yo`sinda hal etishdan tashqari, ta`lim-tarbiya amaliyotiga joriy qilish maqsadida uzoq vaqt izlanishlar olib borildi, tajriba-sinovlar amalga oshirildi.

**O`quv rejasi** - davlat hujjatidir. Unga barcha umumta`lim maktablari so`zsiz amal qiladi. Bu hujjatda sinflar bo`yicha o`rganilishi lozim bo`lgan o`quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o`quv soatlari ko`rsatiladi. Bu hujjat maktabning yagona o`quv rejasi hisoblanib, u halq ta`limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Alohida aniq bir fanning o`quv rejasi - shu fanni o`qitish uchun ajratilgan soatlar va o`quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatidir.

**O`quv fan dasturi** - har bir alohida fan uchun o`quv dasturi tuziladi. Dastur o`quv rejasiga asoslanadi. Fanning maqsadidan, o`quv rejasi bo`yicha ajratilgan soat va bilim hajmi uning tizimi mavjud jamiyatning g`oyaviy-siyosiy yo`nalishini o`zida aks ettiradigan davlat hujjatidir.

O`quv dasturida bir sinfda alohida fanlar bo`yicha o`quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko`nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda fanning mazmuni, mavzu ketma-ketligi ikkinchi mavzu birinchini to`ldirishi, izchillik bilan yoritiladi va ma`lum mavzular orqali ko`rsatiladi. O`quv dasturida shu fan bo`yicha o`quvchilarga berilishi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar kichik mavzularda ifodalanib, mavzu maqsadi qisqacha izohlanadi.

Fanning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda boblarga bo`linadi. Boblar katta-katta mavzularga, katta mavzular esa kichik mavzularga bo`linib, shu mavzu yuzasidai o`quvchi qanaqa bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashgirishi lozim bo`lsa, uning mazmuni qisqacha ifodalanib beriladi.

**O`quv dasturining o`zini amal qilinishi kerak bo`lgan printsiplari mavjud:**

1. Dasturning aniq bir g`oyaga asoslanganligi.

Mustaqil jamiyatimiz taraqqiyotining tamoyillariga asoslangan holda isloh qilingan har bir sohadagi fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlarda erishilgan yutuqlar darajasini ilmiy asosda aks ettirishi lozim.

2. Dastur ilmiylik printsiptiga asoslanadi.

Har bir ta`lim va tarbiya g`oyalari, ilmiy jihatdan tekshirilgan, ishonchli dalillar, kuzatishlar, manbalar va materiallar asosida kiritiladi.

3. O`quv dasturi- aniq mazmun va mantiqiy g`oyalarni o`zida aks ettirishi lozim.

Dasturda fanning maqsad va vazifalari undagi bilim asoslari misollar va masalalar orqali o`rgatiladi. Aks holda o`rgatilayotgan bilim asoslarini nazariy jihatdan tushunish qiyin bo`ladi.

4. Nazariya bilan amaliyotning birligi printsipli. Talabalar olgan nazariy bilimlarini, amalda qo`llay olishi ko`nikmasini shakllantirish nazarda tutiladi.

5. O`quv dasturini tuzishda fanning tarixiy saboqlari inobatga olinadi.

Vaqt o`tishi bilan fan olamida yangi-yangi kashfiyotlar, ma`lum bir ilmiy qonun-qoidalar paydo bo`lib, fan takomillashib boradi. Dastur fanning kelajakdagi istiqbolini o`zida qisqacha ifodalaydi.

6. O`quv dasturi davlat tomonidan tasdiqlangan reja asosida bakalavr, magistr, litsey, gimnaziya, kollejlarga alohida-alohida tuziladi.

## **Darslik**

**Darslik o`quv jarayonining asosi.** Darslik o`quvchining uydagi muallimi, har bir fanning mazmuni, maqsadi, vazifasi darslikda yoritiladi, darslik, ya`ni fan ob`ektiv borliq o`rtasidagi muhim qonuniyatli bog`lanishlarini aks ettiradi, darslikdagi bilimlar tizimi o`zaro ichki, mantiqiy bog`lanishlarga ega bo`lib, ular didaktika talabiga muvofiq ravishda bayon qilingan.

### **Darslik quyidagi talablarga amal qilgan holda yaratiladi:**

1. Har bir o`quv fani uchun yaratiladigan darslikda ilmiy bilimlar tizimi va uning hajmi dastur talablariga sinf o`quvchilarining yosh hususiyatlariga mos kelishi kerak.

2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari, g`oyaviy yo`nalishlari tizimli va izchil bo`lishi talab qilinadi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo`lishi lozim. Keltirilgan fakt va dalillarning ishonchli bo`lishi, ular to`g`ri taxlil, aniq ta`rif etilishi tegishli xulosalar chiqarilishi lozim. Shu holdagina o`quvchilardagi ilmiy dunyoqarash, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib toptiriladi.

3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog`langan bo`lishi kerak.

4. Darslikda mavzu sodda, ravon tilda yozilishi, hamda tegishli qoida va ta`riflari berilishi kerak. Darslik ichidagi va muqovasidagi



chizilgan rasmlar va bezatilishi o`quvchining yoshiga mos, fanning harakteriga monand bo`lmog`i zarur.

5. Mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo`lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.

Mamlakatimizda pedagogika ilmi ham, amaliyoti ham yangilanib bormoqda. Ma`lumki, har qanday millatning yangilanishi yoshlar tarbiyasidan boshlanadi.

Pedagogika o`quvchilarning ruhiy, jismoniy, genetik va mintaqaviy o`ziga xosliklarini to`liq hisobga olgandagina yuqori samaradorlikka erishishi mumkin.

Hozirgi davrda yaratilayotgan darsliklarning asosiy kamchiligi millatimiz bolalarining psixologik o`ziga xosliklarini, fikrlash tarzini to`liq hisobga olishga erisha olinmayotganida, deb bilamiz. Bizning mutaxassislarimiz didaktik vositalar orqali o`quvchilarga hamma gapni aytib berishga odatlanib qolishgan. Holbuki, o`quvchini o`qitish kerak emas, uni o`zini o`qiydigan holatga olib kelish lozim. Toki bolaning o`zi izlanmas ekan, ta`limda yutuqa erishish mumkin emas. Demak, yaratilayotgan didaktik vositalar jumboqli harakterga ega bo`lishi, o`quvchilarni o`ylanishga, izlanishga, sinab ko`rishga da`vat qiladigan tarzda tuzilishi lozim.



### **O`quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish**

Kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq uzluksiz ta`lim tizimida o`quv adabiyotlari ta`lim turlari uchun tasdiqlangan davlat ta`lim standartlari (yoki davlat talablari) va fanlar bo`yicha uzviy bog`langan o`quv dasturlari asosida tayyorlanadi. Bunda muayyan fanning o`quv adabiyotlari mazkur ta`lim turida o`qitiladigan boshqa fanlar bilan bog`liqligini va boshqa ta`lim turlarida ushbu fanning o`quv

dasturlaridagi uzviylikni ta`minlash lozim. O`quv adabiyotlari belgilangan tartibda har tomonlama ekspertizadan o`tkaziladi.

Har bir ta`lim turi uchun yaratilayotgan o`quv adabiyotlariga psixologik-pedagogik, uslubiy-didaktik, sanitariya-gigiyenik va boshqa talablar alohida belgilab qo`yiladi.

Uzluksiz ta`lim tizimining barcha turlarida fundamental bilimlardan iborat bo`lgan umumta`lim fanlar bo`yicha o`quv adabiyotlari asosan an`anaviy bosma shaklda tayyorlanadi.

Elektron o`quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, qo`shimcha ma`lumotlar bilan ta`minlashga mo`ljallangan bo`lib, ko`proq chuqurlashtirib o`qitiladigan fanlar bo`yicha yaratiladi. Uzluksiz ta`lim tizimida fan va texnologiyalarning rivojlanishi sari mazmuni tez o`zgaruvchan, chuqurlashtirib o`qitiladigan, umumkasbiy va maxsus fanlar bo`yicha asosan kam adadli elektron o`quv adabiyotlari tayyorlanadi.

O`quv adabiyotlarining mazmuni bilim oluvchilarda mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta`lim olish, yangi bilimlarni o`quv adabiyotlaridan izlab topish ko`nikmalarini hosil qilishni ta`minlashi kerak.

### **O`quv adabiyotlarining shakllari:**

**-o`quv adabiyotlari** – muayyan ta`lim turi (yo`nalishi yoki mutaxassisligi) o`quv rejasida qayd etilgan fanlar bo`yicha tegishli o`quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o`zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan (shu jumladan, xorijiy tarjimalar) manba bo`lib, ikki xil shaklda tayyorlanadi:

**-an`anaviy (bosma) o`quv adabiyotlar** – ta`lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlari, ma`lumotlar hajmi, shriftlari, qog`oz sifati, muqova turi va boshqa ko`rsatkichlarni hisobga olgan holda qog`ozda chop etiladigan manba;

**-elektron o`quv adabiyotlar** – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma`lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo`lgan manba.

### **O`quv adabiyotlarining turlari:**

Uzluksiz ta`lim tizimi o`quv tarbiyaviy jarayonida o`quv adabiyotlarining quyidagi turlari qo`llaniladi: darslik, o`quv qo`llanma, lug`at, izohli lug`at, ma`lumotlar to`plami, leksiya kurs, leksiya

to`plami, metodik ko`rsatmalar, metodik qo`llanmalar, ma`lumotlar banki, dayjest, sharh va boshqalar.

**Darslik** – davlat ta`lim standarti, o`quv dasturi uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g'oyasi singdirilgan, muayyan o`quv fanining mavzulari to`liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o`zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta`lim yo`nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

U yoki bu ta`lim turining maqsad va vazifalarini qamrab olgan, bilim oluvchilarning yoshi va boshqa hususiyatlarini hisobga olgan o`z darsliklari bo`ladi. Darslikda nazariy ma`lumotlardan tashqari, amaliy-tajriba va sinov mashqlari bo`yicha zarur ko`rstamalar beriladi.

**O`quv qo`llanma** – darslikni qisman to`ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo`yicha tuzilgan va asoslarining chuqur o`zlashtirilishini ta`minlovchi, ayrim bob va bo`limlarni keng tarzda yoritishga yoki amaliy mashq va mashg'ulotlar echimiga mo`ljallangan nashr.

O`quv qo`llanmada muayyan mavzular darslikka nisbatan kengroq yoritiladi. Masalan, «Mexanika»- fizika fanining mexanika qismiga bag'ishlangan o`quv qo`llanma. «Fizikadan masalalar to`plami»- fizika fani bo`yicha masala va mashqlar yechishga mo`ljallangan o`quv qo`llanma va hokazo.

**Lug'at** – aniq bir tartibda joylashgan so`zlar (yoki so`z birikmasi, idiomalar va hokazo) to`plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi to`g'risida ma`lumot beruvchi yoki so`zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi nashr.

**Izohli lug'at** – so`zlarning mazmunini izohlaydigan, har bir so`zning grammatik, etimologik va stilistik tavsifi berilgan, ularni qo`llashga oid misollar va boshqa ma`lumotlar keltirilgan, qo`shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

**Ma`lumotlar to`plami** – foydalanishga qulay shaklda yaratilgan muayyan fanni yoki ta`lim yo`nalishini o`zlashtirish uchun zarur bo`lgan, isbot talab qilmaydigan ma`lumotlar, ilmiy ko`rsatkich va o`lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, amaliy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi qisqa ma`lumotlardan tashkil topgan nashr.

Ma`lumotlar to`plamida bir qator muhim ilmiy-amaliy masalalarni yechish namunalari keltirilishi lozim.

**Leksiyalar kursi** – fanning o`quv dasturi bo`yicha undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo`shimcha o`quv adabiyotlar ko`rsatilgan, o`z-o`zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan nashr, leksiya kursining nomi tegishli fan nomi bilan ataladi.

**Leksiyalar to`plami** – muayyan fanning o`quv dasturi bo`yicha undagi ayim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo`shimcha o`quv adabiyotlar ko`rsatilgan, o`z-o`zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, davriy ravishda ilmiy-tadqiqot izlanishlar asosida yangilanib turiladigan, ta`lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi bo`yicha chiqariladigan kichik adadli tarqatma material.

**Metodik (uslubiy) ko`rsatma** – muayyan fanning o`quv dasturi bo`yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo`yicha talabalarda zarur amaliy ko`nikmalar hosil qilishga mo`ljallangan, ta`lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

**Metodik qo`llanma** – o`qituvchilar (professor-o`qituvchilar) va bilim oluvchilar uchun mo`ljallangan bo`lib, unda bir darsning maqsadi, dars o`tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg`ulotlar, qo`shimcha topshiriqlar, va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta`lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

**Sharh** – jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadigan me`yoriy-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, bahsga loyiq asarlarni, g`oyalarni, fikrlarni va ta`riflarni izohlovchi, muayyan masalalar echimini ko`rsatuvchi, keng ommaga mo`ljallangan qo`shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

**Dayjest** – ilmiy, ilmiy-uslubiy, o`quv, davriy, adabiyotlar, hukumat va turli tashkilotlar faoliyatiga tegishli qonunlar qarorlar, nizomlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, sohalarga oid ma`lumotlar to`plami sifatida foydalaniladigan doimiy nashr.

**Elektron darslik** – kompyuter texnologiyasiga asoslangan o`quv uslubini qo`llashga, mustaqil ta`lim olishga hamda fanga oid o`quv materiallar, ilmiy ma`lumotlarning har tomonlama samarador o`zlashtirilishiga mo`ljallangan bo`lib:

-o`quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;  
-o`quv materiallar verbal (matn) va ikki o`lchamli grafik shaklda;

-multimedia (ko`p axborotli) qo`llanmalar, ya`ni ma`lumot uch o`lchamli grafik ko`rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda;

- taktil (his qilinuvchi, seziladigan) hususiyatli, o`quvchini «ekran olamida» stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi ob`ektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.



**Ma`lumotlar banki** - axborot texnologiyalarining imkoniyati va vositalari asosida yaratilgan, statik va dinamik rejimi tuzilgan, tovush va rangli tasvirlar bilan ta`minlangan, katta hajmdagi axborotlarni o`z ichiga qamrab olgan va ularni turli ko`rinishda (jadval, diagramma, gistogramma, matn, rasm, va hokazo) bera oladigan, o`quv jarayonida bilim oluvchilar tomonidan o`z ustida mustaqil ishlashi va o`z bilimlarini nazorat qilishi uchun qo`llaniladigan, doimiy ravishda to`ldirib boriladigan, keng doirada foydalanishga mo`ljallangan, tegishli vakolatli davlat tashkilotida qayd etilgan sohalar bo`yicha ma`lumotlar to`plami.

Prezidentimiz Farmoni bilan qabul qilingan “2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha “Harakatlar strategiyasi”da ta`lim sifatini tubdan oshirish, bo`yicha muhim vazifalar belgilab berilgan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish jarayonida barcha yo`nalishdagi fanlar bo`yicha davlat ta`lim standartlarini, o`quv dastur

va rejalarni yangilash, o'qitishni sifat va mazmun jihatdan yanada takomillashtirish zarurdir. Ushbu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017 yil 6 aprelda "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari" tasdiqlandi.

Milliy ta'lim tizimiga takomillashtirilgan Davlat ta'lim standartlarini birgina qaror yoki buyruq berish orqali joriy etib bo'lmaydi. Buning uchun ta'lim tizimidagi barcha ishtirokchilar birgalikda hamjihat bo'lib ishga kirishishlari kerak. Bu borada qanday muammolar mavjud bo'ladi?

Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimini yangicha ko'rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo'llash orqali ta'lim samaradorligiga erishish davr talabidir. Ta'lim muassasasi bitiruvchisi o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning echimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashda asosan, pedagog kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg'unlashtirish uchun shaxsiy etuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson hayotiga kirib keladigan har qanday yangilik unda sergaklikni, hattoki norozilikni uyg'otadi. Shunga ko'ra, uzoq yillar davomida an'anaviy usullar bilan ishlab kelgan pedagoglar bugungi kunning o'zidayoq takomillashtirilgan Davlat ta'lim standartlari asosidagi o'quv jarayoni talab darajasida tashkil eta olmaydilar.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Standartlashtirilgan ta'lim nima?
2. davlat ta'lim standartlarini ikki asosiy vazifasini yoriting.
3. O'quv reja nima va u nima uchun kerak?
4. O'quv fan dasturi qanday hujjat?
5. O'quv dasturining o'zini amal qilinishi kerak bo'lgan printsiplari mavjud
6. Darslik o'quv jarayonining asosi sifatida qanday fikr bildira olasiz?
7. Darslik qanday talablarga amal qilgan holda yaratiladi?
8. O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

9. O`quv adabiyotlarining qanday shakllarini bilasiz?
10. O`quv adabiyotlarining qanday turlarini bilasiz?
11. Darslik nima?
12. Ma`lumotlar banki – nima?

### **Tushunchalarga ta`rif bering:**

<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Davlat ta`lim standartlari-</b></li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Darslik-</b></li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Ma`lumot banki-</b></li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Standartlashtirilgan ta`lim-</b></li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Elektron darslik-</b></li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Tamiyil-</b></li> </ul>

### **I.3. Ta`limga kompetentsiyaviy yondashuv**

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv g'oyasi"2010 yilgacha Rossiya ta'limini modernizatsiya qilish kontseptsiyasi" ni tayyorlash paytida paydo bo'lgan va hozirda ta'lim qadriyatlari va maqsadlaridagi o'zgarishlarning alomati sifatida qaralmoqda. bu ta'lim mazmuni uchun ochiq buyurtma g'oyasi... Fuqarolar undagi o'zgarishlarni jamiyatning turli sohalarida yashash va ishlash uchun minimal zarur (standart) talablarni o'zlashtirish zarurati bilan bog'laydi.

Kompetentsiya yondashuvi- Bu ta'lim natijasiga qaratilgan yondashuv bo'lib, natijada olingan ma'lumotlarning yig'indisi emas, balki shaxsning turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati hisobga olinadi. Ushbu holatlarning majmui ta'lim muassasasining turiga (o'ziga xos xususiyatlariga) bog'liq: umumiy yoki kasb-hunar ta'limi, boshlang'ich, o'rta yoki oliy, qanday kasb-hunar ta'limi.

Kompetentsiya yondashuvi ta'lim natijalari ta'lim tizimidan tashqarida muhim deb tan olinadigan yondashuvdir. Binobarin, kompetensiyaga asoslangan yondashuv mantiqida ta'lim mazmunini tashkil etish birliklari va ta'lim jarayoni samaradorligini baholash (sifatni baholash) usullarini o'zgartirish zarur.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv, O. E. Lebedevning fikricha, ta'lim maqsadlarini belgilash, ta'lim mazmunini tanlash, o'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholashning umumiy tamoyillari yig'indisidir. Ushbu tamoyillarga quyidagilar kiradi:

- Ta'limning ma'nosi - o'quvchilarda ijtimoiy tajribadan foydalanish asosida turli soha va faoliyat turlari bo'yicha muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantirish, uning elementi o'quvchilarning shaxsiy tajribasi;

- Ta'lim jarayonini tashkil etishning ma'nosi o'quvchilarda ta'lim mazmunini tashkil etuvchi kognitiv, kommunikativ, tashkiliy, axloqiy va boshqa muammolarni mustaqil hal etish tajribasini shakllantirish uchun sharoit yaratishdan iborat;

- Ta'lim natijalarini baholash o'quvchilarning ta'limning ma'lum bosqichida erishgan ta'lim darajalarini tahlil qilishga asoslanadi.

Kompetentsiya yondashuvi umumiy ta'limning maqsadlari va mazmunini belgilashda mutlaqo yangi emas, balki rus ta'limi uchun undan ham begona. M.N. Skatkin, I. Ya. Lerner, V.V. Kraevskiy, G.P. Shchedrovitskiy, V.V. Davydov va ularning izdoshlari.

Shu nuqtai nazardan, alohida o'qitish texnologiyalari va o'quv qo'llanmalari ishlab chiqilgan. Biroq, bu yo'nalish hal qiluvchi emas edi, u amalda yangi o'quv dasturlari, standartlar va baholash tartiblarini yaratishda qo'llanilmadi.

Bugungi kunda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning asosiy postulatlarini quyidagilardan iborat:

1. Ta'limning shaxsiy yo'nalishini kuchaytirish, ya'ni. o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlariga tayangan holda tanlab olish holatlarini yaratish va o'quv jarayonida o'quvchilarni faollashtirish, ya'ni talabning o'zi izlanishi, izlanishi, bilimni qurishi;

2. Ijtimoiy ahamiyatga ega va hayotiy vazifalarni hal qilishga o'rgatish faoliyatning yangi turlari va usullarini egallash orqali.

3. O'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilganlik... Muammolarni hal qilishda talabalarning mustaqilligi va ijodkorligining namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratish, shuningdek, ularning o'sishini, yutuqlarini ko'rish imkoniyatini berish. O'quvchilarning introspektsiyasi, o'zini o'zi qadrlashi va aks ettirish faoliyatiga alohida o'rin berilishi kerak. Eng avvalo, ta'limda biror bir o'zgarishlarni amalga oshirish uchun avval o'qituvchining kasbiy ongini tubdan o'zgartirish kerak.

Pedagoglarimiz darslarni yangi takomillashgan standart asosida tashkil etish uchun, avvalo, o'z faniga oid davlat ta'lim standarti va



o'quv dasturini sinchiklab o'rganishi, yangidan nashr etilgan darslik bilan tanishishi, taqdim etilgan o'quv dasturi asosida taqvim reja tuzib olishi kerak bo'ladi.

Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan dars ishlanmalarida ham tegishli o'zgarishlar qilish lozim. Jumladan: darsning texnologik xaritasida darsning maqsadi, jihozlari, o'qitish texnologiyasi va h.k.lar o'zgarishi bilan birgalikda o'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetentsiyalar aniq holda belgilab olinadi. Shu bilan birga pedagog o'quvchilarda mazkur kompetentsiyalar shakllanganligini aniqlay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

### **Ta'limga kompetentsiyaviy yondashuv nima uchun kerak ?**

Hozirgi kunda o'quvchilarda o'quv predmetlari bo'yicha faqatgina bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishning o'zi etarli emasligi ma'lum bo'lmoqda. Jumladan:

- Ta'lim muassasasini muaffaqiyatli bitirgan ayrim o'quvchilar, hayotda ko'p muaffaqiyatsizliklarga uchraydi;
- Oliy ta'lim muassasini bitirib yangi ishga borgan yosh mutaxassis universitet yoki institutda kasbiga oid bilim va ko'nikmalarni etarli darajada olgan bo'lsada, ish joyiga ko'nikishi uzoq vaqt davom etadi;
- Kritik momentda ma'lum bo'ladiki, maktab, kollej yoki litseyda olingan bilim va ko'nikmalar tezda hal qilinishi kerak bo'lgan hayotiy vaziyatlarga to'g'ri kelmaydi yoki umuman hayotida kerak bo'lmaydi.

Shunga ko'ra ta'lim jarayoniga o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo'llashga o'rgatadigan kompetentsiyaviy yondoshuvga asoslangan DTS larni yaratish va ta'lim jarayoniga qo'llash zaruriyati yuzaga keldi.

### **Kompetentsiyaviy yondashuv deganda nimani tushunamiz?**

*“Competenc” so'zi “to compete” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjima qilinsa “musobaqalashishga layoqatlilik” ma'nosida keladi.*

Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, kompetentsiya, kompetentlik o'ta murakkab, ko'p qismli, ko'pgina fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko'ra, ham ma'no, mantiq mundarijasi jihatidan turli-tuman. Atamaning mohiyati shuningdek, "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xocca", xususiyat", sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda.

**Shunga ko'ra ta'lim kompetentsiyalarini tasdiqlangan standartda keltirilgan ta'rif bo'yicha qabul qilamiz:**

- **bilim — o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;**
- **ko'nikma — o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;**
- **malaka — o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;**
- **kompetentsiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.**

Kompetentsiyalarning mazmuni va mohiyatini o'rganishdan oldin, uning fan va turmushga kirib kelishning qisqacha tarixi bilan tanishaylik.

**Birinchi bosqich** – 1960–1970 yillar – tilni o'rganishga doir dastlabki kompetentsiyalar kiritila boshlandi. Bunda D.Xayms tomonidan «kommunikativ kompetentsiya» tushunchasi kiritiladi.

**Ikkinchi bosqich** – 1970–1990 yillar – kompetentsiyaG'kompetentlik kategoriyalarini tilni ayniqsa ikkinchi (ona tilidan tashqari) tilni o'rganish nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda, rahbarlikda, menejmentda professionallik va muloqotni o'rganishda foydalanila boshlandi. Bu paytda «ijtimoiy kompetentsiya kompetentlik» tushunchasining mazmuni ishlab chiqiladi.

**Uchinchi bosqich** –1990 va keyingi yillarda kompetentsiyaviy yondoshuv, kasbiy ta'limga, umumta'lim fanlariga va boshqa yo'nalishlarda qo'llanila boshlandi .

O'zbekistonda dastlab Birinchi Prezidentimiz farmoniga muvofiq, chet tillarni o'qitishni takomillashtirishga qaratilgan 2012 yil 12 dekabr Farmoniga muvofiq ilk bor kompetentsiyaviy yondoshuvga asoslangan DTS ishlab chiqilib, 2013-2014 o'quv yilidan bosqichma-bosqich xalq ta'limi tizimida amaliyotga joriy etish boshlandi.

Kompetentsiya bo'lishi uchun uning strukturasi qanday bo'lishi kerak: Kompetentsiyaning struktura komponentalari ro'yxati:

- \*kompetentsiyaning nomi;

- \*kompetentsiya tipi va uning umumiy ketma-ketligidagi o'rni (tayanch, umumpredmet, predmet);

- \* kompetentsiyalar kiritiladigan, real faoliyat ko'rsatadigan ob'ektlar doirasi;

- \*kompetentsiyaning ijtimoiy-amaliy bog'liqligi va ahamiyati (u jamiyat uchun nima sababdan kerak?);

- \* kompetentsiyaning shaxsga nisbatan ahamiyati (nima sababdan o'quvchi kompetent bo'lishi kerak?);

- \*real ob'ektlar doirasiga oid bilimlari, ko'nikmalari va malakalari;

- \*mazkur kompetentsiya doirasida o'quvchining faoliyat ko'rsatishi uchun kerak bo'ladigan minimal tajribasi (o'qitish bosqichlari bo'yicha);

- \* indikatorlar-o'quvchi kompetentligi (o'qitish bosqichlari bo'yicha) darajasini aniqlash uchun o'quv va nazorat-baholash topshiriqlari namunalari, misollari.

### **Qanday kompetentsiyalarni tayanch kompetentsiyalar deb olish kerak:**

Kompetentsiyalardan, ta'lim kompetentsiyalarni farqlash lozim. Ta'lim kompetentsiyasi o'quvchini kelajakdagi to'la qonli hayotidagi faoliyatini modellashtiradi. Masalan, fuqaro ma'lum bir yoshga etgunga qadar ba'zibir kompetentsiyalarni tatbiq eta olmaydi. Lekin, bu degani, ularni o'quvchida shakllantirilmaydi, degani emas. Bu holatda biz ta'lim kompetentsiyasi haqida gapiramiz. Masalan, o'quvchi fuqarolik kompetentsiyasini o'zlashtirsada, uni to'la qonli ravishda maktab yoki kollejni tugatganidan so'ng ishlatadi. Shunga ko'ra bunday kompetentsiyalar, o'qish davrida ta'lim kompetentsiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tayanch kompetentsiyalarning dunyo bo'yicha yagona ro'yxati yo'q. Chunki har bir mamlakatning yoki regionning o'z an'analari, mentaliteti va o'ziga xos talablari bor.

Kompetentsiya – bu jamiyatning o'z fuqarolariga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi bo'lib, ularning ro'yxati ma'lum bir mamlakatdagi yoki regiondagi ijtimoiy muhit bilan belgilanadi Bunday kelishuvga har doim ham erishib bo'lmaydi. Masalan Shveysariyaning va Amerika Qo'shma Shtatlarining iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda ta'lim statistikasi Milliy institutining “Tayanch kompetentsiyalarni tanlash va aniqlash” nomli loyihasida tayanch kompetentsiyalarni qat'iy ravishda aniqlab olishning imkoniyati bo'lmagan.

Shunga ko'ra kompetentsiyalarning Evropa varianti va Rossiya variantlarini qaraylik.

“Evropa uchun tayanch kompetentsiyalar” nomli Evropa kengashi simpoziumida belgilangan tayanch kompetentsiyalar:

**O'rganishi kerak:**

\* tajribadan foydali biror narsani chiqarib olishi;

\*o'z bilimlari orasidagi o'zaro aloqani tashkil qilish va ularni tartiblashtirish;

\*o'zining shaxsiy o'rganish usullarini tashkil qilish(o'rnatish);

\*muammolarni echa olish;

**Izlash:**

\* mustaqil bilim olish bilan shug'ullanish;

\* turli ma'lumotlar bazasini izlash;

\*tevarak atrofdan surishtirish;

\*ekspertdan maslahat olish;

\*axborot olish;

\*xujjatlar bilan ishlash va ularni turkumlash (klassifikatsiyalash).

**O'ylash:**

\* o'tgan va hozirgi voqealar orasidagi o'zaro bog'liqlikni topmoq;

\* jamiyat rivojlanishining u yoki bu aspektiga tanqidiy yondoshmoq;

\* murakkablik va o'ziga bo'lgan ishonch yo'qolishiga qarshi turmoq;

\* baxslashuvlarda o'z pozitsiyasini egallash va shaxsiy nuqtai nazariga ega bo'lmoq;

\* o'qiyotgan va ishlayotgan joydagi siyosiy va iqtisodiy muhitning muhimligini anglash;

\* salomatlik, iste'mol qilish, hamda tasviriy san'at va adabiy asarlarini baholay bilish .

**Hamkorlik qilish:**

- \* Guruhda ishlash va hamkorlik qila olish;
- \* Qarorlar qabul qilish –anglashilmovchilik va janjallarni bartaraf etish;
- \* Kelisha olish;
- \* Shartnomalarni ishlab chiqish va bajarish.

### **Ishga kirishish:**

- \* Loyihada qatnashish;
- \* Javobgarlikni olish;
- \* Guruhga yoki jamoaga kirish hamda o'z hissasini qo'shish;
- \* Hamkor ekanligini isbotlash;
- \* O'z ishini tashkil qila bilish;
- \* Hisoblash va modellashtirish asboblaridan foydalana bilish.

### **Ko'nikish;**

- \* Yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish;
- \* Tez o'zgarishlar oldida moslashuvchanligini isbotlash;
- \* Yangi echimlarni topa bilish.

### **Tayanch kompetentsiyalarning Rossiya varianti:**

- \* Qadr-qimmat, e'tiqod kompetentsiyasi
- \* Umummadaniy kompetentsiyalar
- \* O'quv-o'rganish kompetentsiyasi
- \* Axborot kompetentsiyasi.
- \* Kommunikativ kompetentsiya
- \* Ijtimoiy-mehnat kompetentsiyasi
- Shaxsni takomillashtirish kompetentsiyasi

Kompetentlik – kompetentsiyalarni qo'llay olishda ega bo'lishi kerak bo'lgan minimal tajribasi bo'lishni taqozo etadi. Bu haqda o'quvchining tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni shakllantirishda, hamda o'quv jarayoni va darsliklarni loyihalashda esdan chiqarmaslik kerak.

O'qitishda ularning roli va o'rnini analiz qilish asosida ajratib olingan kompetentsiyalarning asosiy funktsiyalarini sanab o'tamiz:

- kundalik hayotda yashash uchun tayyor bo'ladigan yosh fuqarolarga qo'yiladigan ijtimoiy talabning aks etishi;
- bilim, ko'nikma va malakalarini hamda faoliyat usullarini kompleks holda maqsadli qo'llashi uchun atrof muhitdan real ob'ektlarni ko'rsatishi;
- turli o'quv predmetlari va ta'lim sohalari mazmunining tarkibiy qismi bo'lishi;

- konkret masalalarni echishda nazariy bilimlarni amaliyotda foydalanish bilan bog'lashi.

### **Kompetentsiyalar qanday ketma-ketlikda bo'lishi kerak?**

Ma'lumki, ba'zi kompetentsiyalar, boshqalariga nisbatan umumiy yoki ahamiyatliroq bo'ladi. Shunga ko'ra ularni uchta darajaga bo'lish mumkin:

1) tayanch kompetentsiyalar– ta'lim mazmunining umumiy (metapredmet) qismiga tegishli;

2) umumpredmet kompetentsiyalari– ma'lum doiraga kiruvchi o'quv predmetlari va ta'lim sohalariga tegishli;

3) predmetga oid kompetentsiyalar– oldingi ikkitaga nisbatan xususiy hisoblanib o'quv predmeti doirasida shakllantiriladi.

Tayanch kompetentsiyalar har safar ta'limning ma'lum bir bosqichi va belgilangan o'quv predmeti uchun konkretlashtiriladi. Masalan predmet kompetentsiyasi hisoblangan tarix fani bo'yicha, har qanday tarixiy voqeada turli tomonlarning manfaatlari kurashini ajratib olish qobiliyati yotadi.

Keltirilgan to'plam me'yoriy xujjatlar, o'quv va metodik adabiyotlar, shuningdek o'quvchilarning umum tayyorgarligini o'lchash, shu bilan birga ularning kreativ tayyorgarligi darajasini o'lchaydigan xujjatlarni loyihalash va yoritish uchun xarakterlovchi to'plamni belgilaydi.

Didaktika va metodikalarda tayanch, umumpredmet va predmet kompetentsiyalari mazmunini aks ettirish uchun ularni maxsus texnologiya asosida konstruktsiyani tuzish kerak.

Loyihalashning birinchi bosqichida, tanlab olingan o'quv predmetiga (matematika, tarix, informatika va h.k.) tegishli ta'lim kompetentsiyalari ro'yxati tuziladi. Buning uchun predmetda tayanch kompetentsiyalar (kommunikativ, axborot bilan ishlash va h.k.) qidirib topiladi. O'quv predmetining tayanch kompetentsiyalarni shakllantirishga qo'shishi mumkin bo'lgan hissasi aniqlanadi.

So'ngra predmet kompetentsiyalarini tuzish uchun, o'quv predmetining tizimlashtirilgan komponentining minimal ro'yxati tuziladi:

1) Ob'ektiv borliq ob'ektlari (tabiiy, madaniy, ijtimoiy hodisalar, texnik qurilmalar, manba-asarlar va h.k.). Fan yoki faoliyat sohalaridan o'quv predmeti uchun real predmet va hodisalarni ajratib olinadi. Masalan, bular sifatida - ona tilida, tovush, so'z va h.k. dan tuzilgan

og'zaki nutqni real jarayon deb, asarlardagi matnni moddiy ob'ektlar deb olish mumkin. Fizikada - asosiy fizik hodisalar, moddaning turli holatlari, fundamental maydonlar va o'zaro ta'sirlar, elementar zarralar; kimyoda – modda va ularning aylanishi; tarixda – tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan predmetlar, voqealar va h.k.

2) O'rganilayotgan borliq haqidagi umummadaniy bilimlar: Insoniyat tomonidan tegishli ob'ektga nisbatan ishlab chiqilgan qoidalar, qonunlar, nazariyalar, tushunchalar, qarama-qarshiliklar, madaniy ahamiyatga ega faktlar, g'oyalar, gipotezalar, muammolar, texnologiyalar, alternativ yondoshuvlar va boshqa bilimlar.

3) Umumiy va umumo'quv ko'nikmalar, malakalar, faoliyat turlari. O'quv predmetiga tegishli va umumpredmet ahamiyatiga ega bo'lgan konkret ko'nikmalar, malakalar, faoliyat turlarining guruhlar bo'yicha tizimlashtirilgan ro'yxati keltiriladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Kompetentsiyaviy yondashuv deganda nimani tushunamiz?

2. Qanday kompetentsiyalarni tayanch kompetentsiyalar deb olish kerak:

3. Tayanch kompetentsiyalarning Rossiya varianti:

4. Kompetentsiyalar qanday ketma-ketlikda bo'lishi kerak?

5. Ta'limga kompetentsiyaviy yondashuv nima uchun kerak ?

### Tushunchalarga ta'rif bering:

• Hamkorlik qilish:

• Tizimga kirish

• indikatorlar-o'quvchi -

• Bilim-

• Ko'nikma -

• Malaka-

## **II.TA'LIM MAZMUNI VA UNI KOMPETENTSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI**

### **II.1.Uzluksiz va uzviy metodik tadbirlarni tashkillashtirish**

Pedagogik jamoa faoliyatini boy ilg'or tajribalardan unumli foydalanish, yangi-liklarni izlash, yaratish, joriy etishni, barcha yo'nalishlar bo'yicha mazkur ishlarni olib borishni taqozo etadi. Ayniqsa, pedagogik kadr-lar bilan ishlash, ustoz-shogird tizimini shakllantirish, respublikamiz va xorijiy mamlakat-lar ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganish, targ'ibot qilish, joriy etish, o'qituvchilarning pedagogik mahorat maktabini tashkil etish, OTM professor-o'qituvchilari bilan hamkorlik va ijodkorlik ishlarini jonlantirish yaxshi natijalar bermoqda.

Ta'limda uzviylik masalasi har doim eng dol-zarb muammo sifatida o'rganib kelingan. Zero, XXI asrga kelib, ta'limga qo'yilgan talab va maz-munning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ularni quyidagicha tarkiblashtirish mumkin:

a) ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylik. Bunda muayyan ta'lim mazmunini avvalgisi bilan uzviy bog'langan xolda keyingi ta'lim turlarida davom ettirish ta'minlanadi;

b) o'quv fanlaridagi uzviylik. Bu ko'pincha fanlararo bog'lanish deyiladi. Uzviylik muammosini to'la xal etish uchun nafaqat ta'lim bosqichlari va fanlararo uzviylik, shuningdek, ta'lim mazmunini bayon qilishda o'qitish texnologiyasidagi uzviylikni ham ta'minlash muhimdir.

Bugungi kunga kelib ta'lim insoniyat faoliyatining barcha jabhalariga yangi texnologiyalarning kirib borishi, raqobatbardoshlik o'sishi va aholining turmush darajasi oshishining asosiy sharti bo'lib xizmat qilmoqda. Haqiqatan ham, bugungi kunda oliy ta'limning deyarli barcha jabhalarida ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quv materiallarining mazmuni, ayniqsa, ta'lim jarayonining axborot-resurs ta'minoti bo'yicha mavjud qarashlar tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish va texnologiyalashtirish oliy, xususan, professional iqtisodiy ta'limning sifati va samaradorligini oshirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlariga aylandi.

Respublikaning oliy o'quv muassasalari respublikamiz innovatsion salohiyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida iqtisodiyotni



modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, innovatsion tovarlarni, texnologiyalarni yoki strategiyalarni yaratish va joriy etishda etakchilik qilishga intilmoqdalar. Iqtisodiy oliy ta'limning innovatsion rivoji esa iqtisodiyotning globallasuvi va raqobat oshishi sharoitida yuqori professional va kompetent kadrlarni tayyorlashning bosh yo'nalishi hisoblanadi.

***Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vositalaridan samarali foydalanishga asoslangan ilg'or interfaol ta'lim texnologiyalarini joriy etish professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyati va mahorati doimiy oshib borishi bilan uyg'unlikda barqaror rivojlanadigan iqtisodiyot uchun global fikrlovchi va kompetent kadrlarni tayyorlashga kafolat berishi mumkin.***

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda ta'lim tizimi muntazam va uzluksiz ravishda takomillashtirilib borilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishiga hamohang holda ta'lim muassasalarida o'qitishning yangicha shakl va usullaridan foydalanish jarayoni kuzatilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti hamda globallasuv natijasida axborot hajmining misli ko'rilmagan darajada oshib ketishi uni samarali o'zlashtirish jarayonini birgina an'anaviy ta'lim shakllariga tayangan holda amalga oshirib bo'lmasligini yaqqol namoyon etmoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini o'zida mujassamlashtiruvchi uzluksiz ta'lim tizimi har tomonlama yetuk, barkamol avlodni etishtirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

Ta'limning uzviyligi va uzluksizligi tushunchalari adabiyotlarda turlicha talqin

qilinadi. Ta'lim bosqichlaridagi o'zaro nomuvofiqliklar bartaraf etilib, o'quv jarayonining barcha bosqichlari o'zaro yaxlitligi ta'minlash ta'lim uzluksizligini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim o'quvchi shaxsini uzviy rivojlantirish maqsadida har bir ta'lim bosqichida pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlari (ta'lim va tarbiya maqsadi, mazmuni, metodlar, vositalar, tashkiliy shakllar)ning o'zaro aloqadorligi, muvofiqligi hamda istiqbolga yo'naltirilganligini anglatadi.

**Ta'limning uzviyligi** – ta'lim mazmunining tizimliliigi, izchilligi va mantiqan bog'liqligi ta'minlanishi, o'zlashtirilgan bilimlarning keyingilarini o'zlashtirishga tayyorlashi, ta'limning har bir bosqichida ma'lum darajada bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlashni talab qiluvchi printsipdir. Uzviylikning mohiyati vaqt bo'yicha individuallashtirilgan, har bir shaxsga o'ziga mos bilim olish sharoitlarini yaratib bera oladigan ta'limga bo'lgan shaxs va jamiyatning ehtiyojlarini qoniqtirish zarurati bilan belgilanadi.

Ta'lim uzluksizligini ta'minlashning bosh g'oyasi inson shaxsining faoliyat sub'ekti sifatida doimiy rivojlanib borishi bilan bog'liq. Kadrlar tayyorlash milliy modelida bu g'oya rivojlantirilib, shaxs kadrlar tayèrlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi sifatida e'tirof etilgan. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarida shaxsning rivojlanishi uzluksiz jarayon sifatida qaralib, unda o'quv jarayonining faqat bilish emas, balki o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy talqin qilishni nazarda tutuvchi rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalari bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa ta'lim tizimining axborotli o'qitishdan produktiv ta'limga, xotiraga asoslangan ta'limdan his-tuyg'ular hamda faol harakatga asoslangan ta'limga o'tilishini belgilab berdi.

Ta'lim uzluksizligini ta'minlashning bosh g'oyasi inson shaxsining faoliyat sub'ekti sifatida doimiy rivojlanib borishi bilan bog'liq. Kadrlar tayèrlash milliy modelida bu g'oya rivojlantirilib, shaxs kadrlar tayèrlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi sifatida e'tirof etilgan.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarida shaxsning rivojlanishi uzluksiz jarayon sifatida qaralib, unda o'quv jarayonining faqat bilish emas, balki o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy talqin qilishni nazarda tutuvchi rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalari bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa ta'lim tizimining axborotli o'qitishdan produktiv ta'limga, xotiraga asoslangan ta'limdan his-tuyg'ular hamda faol harakatga asoslangan ta'limga o'tilishini belgilab berdi.

Ta'limning uzluksizligi va izchilligi respublikamizda ta'lim sohasidagi davlat

siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida belgilab berilgan. Shuningdek, tizimlilik va izchillik tamoyili pedagogikada ta'limning ilmiy-nazariy, metodik asoslari bilan bir qatorda ta'limning didaktik printsiplarida ham alohida qayd etilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimida tizimlilik va izchillik printsiplari muhim ahamiyat kasb etadi.

U ta'limda ma'lum mantiqiy izchillik bo'lish zarurligini bildiradi, chunki bilimlar vorislik xarakteriga ega. Bilim olishdagi tizimlilik va izchillik nazariya va amaliyotning birligi, Davlat ta'lim standartlari, ularga mos ravishda o'quv dasturlarini yaratish va ta'limtarbiya jara'eninga bosqichma-bosqich joriy etish bilan ta'minlanadi.

Ta'lim uzviyligini ta'minlash muammosini shartli ravishda uning barcha yo'nalishlarini qamrab oluvchi quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- uzviyligni ta'minlashning umumpedagogik muammolari echimini ishlab chiqish kasbiy tayyorgarlikning umumpedagogik jihatdan optimal ketma-ketlikda loyihalashtirishini ta'minlaydi

- uzviyligni ta'minlashning didaktik muammolari ta'limning shakl, metod va usullarini qo'llashning ilmiy asoslangan ketma-ketligini qo'llash, kasbiy amallarni o'zlashtirish jarayoni dinamikasini tadqiq qilish, mantiqiy asoslangan tuzilishga ega didaktik materiallar va ularni qo'llash metodikasi, ta'lim vositalari tizimini qo'llashga oid masalalarni o'z ichiga oladi;

- uzviyligni ta'minlashning tarbiyaga oid muammolari ta'lim oluvchilarni ilmiy asoslangan tarbiyasini amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida uzviyligi va uzluksizlikni ta'minlash yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilanadi:

- fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro uzviyligi;
- ta'lim mazmuni uzviyligi;
- bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdagi uzviyligi;
- o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi uzviyligi;
- ta'lim metodlari hamda shakllarini qo'llashdagi uzviyligi;

-o'quvchilar o'zlashtirishini baholashni tashkil qilishdagi uzviylik.

***Uzluksiz ta'limning printsiplari xususiyatlari:***

***- qo'llaniladigan vosita, usul va tashkiliy shakllarning turli-tumanligi va***

***moslashuvchanligi;***

***- ta'limning fundamentallasuvi, insonparvarligi, demokratlashuvi hamda milliy***

***yo'naltirilganligi;***

***- ta'lim jaraenlarining yo'nalish va mazmuniga ko'ra tabaqalashtirilganligi bilan belgilanadi.***

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini buyurtmalar asosida ishga taqsimlash va joylashtirish ishlari ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. O'z navbatida magistratura bosqichi bitiruvchilarni oliy ta'limdan keyingi bosqichga tayyorlash va moslashtirishning muhim mexanizmni vazifasini o'tamoqda.

Yosh mutaxassislariga amaliy yordam ko'rsatish, ish beruvchilar bilan o'rnatilgan aloqalarni mustahkamlash, hamkorlik yo'nalishlarini ko'paytirish, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayèrlash faoliyati ham ta'lim-tarbiya ishining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil ola'tgan talabalar malakaviy amalitining mazmunini takomillashtirish, O'MKHT muassasalari pedagoglari ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil qilish va o'zaro tajriba almashish ishlarini yo'lga qo'yilishi echimini kutayotgan muammolarning hal etilishida muhim omil bo'ladi.

Ta'lim tizimining asosiy maqsadi, barcha sohalarda kasbiy etuk shaxsni shakllantirish, uning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlashdan iborat.

Xorij tajribalari tahliliga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti ta'lim-tarbiya sohasiga joriy etilgan innovatsion texnologiyalarning rivoji va takomillashuvi bilan bog'liq. Bugungi kunda yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish natijasida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tayyorlashga bo'lgan talab oshdi. Bu, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarida qo'yilgan talablarni hisobga olgan holda o'qitish jarayonini takomillashtirishni taqozo etadi.

Mazkur jarayonni takomillashtirish uchun o'qitishda innovatsion yondashuvlar va uning tarkibiy qismi bo'lgan modulli ta'lim texnologiyasi asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va shu orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Uzluksiz va uzviy metodik tadbirlarni tashkillashtirish nimalarga bog'liq?

2. Ta'limda uzviylik masalasi deganda nimani tushunasiz?

3. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vositalaridan samarali

foydalanishga asoslangan ilg'or interfaol ta'lim texnologiyalarining ahamiyati nimadan iborat?

4. Ta'limning uzviyligini yoriting

5. Uzluksiz ta'lim tizimida tizimlilik va izchillik printsipi qanday ahamiyat kasb etadi?

6. Uzluksiz ta'limning printsiplari xususiyatlari nimalardan iborat?

7. Ta'lim-tarbiya jarayonida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash yo'nalishlari sifatida nimalar e'tiborga olinadi?

### **Tushunchalarga ta'rif bering:**

• <b>Uzluksiz va uzviylik -</b>
• <b>Ta'limning uzviyligi -</b>
• <b>Zamonaviy axborot -</b>
• <b>ilg'or pedagogik tajribalarini</b>
• <b>Ilm-fan-</b>
• <b>Ta'lim bosqichlari-</b>

## **II.2. Uzluksiz va uzviy metodik tadbirlarni amalga oshirishda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati**

Mazkur yo'nalishda xalqaro ilg'or tajriba sifatida Germaniya, Angliya, Singapur, Janubiy Koreya Respublikasi va Yaponiya davlatlarining ta'lim tizimi qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasida

ta'limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan xolda, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida (9Q3) o'qitiladigan umumta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida tayanch va fanlararo integrallashgan kompetentsiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan xolda fanga oid umumiy kompetentsiyalar mavjud.

Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standart o'quvchilarning umumta'lim fanlari buyicha tayyorgarligining zarur va etarlicha darajasini hamda ta'lim muassasalari bitiruvchilariga nisbatan qo'yiladigan malakaviy talablarni, o'quv yuklamasining zaruriy hajmini, ta'lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilaydi hamda o'quv reja va dasturlar, darsliklar, qo'llanmalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarining kontseptual modelining tarkibiy qismi quyidagilardan iborat bo'ladi:**

1. Umumiy qoidalar.
2. Asos qilib olingan me'yoriy va qonun osti hujjatlari.
3. Standartning darajalari va nomlanishi.
4. Tayanch va fanga oid umumiy kompetentsiyalar.
5. O'quv fanining maqsad va vazifalari.
6. Umumta'lim fanlarini o'rganishning mazmuni.
7. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari bitiruvchilariga nisbatan qo'yiladigan malakaviy talablar.

Davlat ta'lim standartining tarkibiy qismlariga quyidagicha izoh berish mumkin:

Davlat ta'lim standartining yadrosi hisoblangan uzluksiz majburiy ta'lim tizimining bosqichlariga qo'yiladigan majburiy minimal talablar o'quvchi va talabalarning umumta'lim fanlari bo'yicha tayyorgarligi va kompetentlik darajasiga qo'yiladigan talablar hisoblanadi.

Uzluksiz majburiy ta'lim tizimining majburiy minimal ta'lim mazmuni va egallanadigan kompetentsiyalar o'quvchi va talabalarning ta'lim-tarbiya maqsadlariga qaratilgan turli hatti-harakatlarni bajarishga

imkon beradigan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar yig'indisidir.

**Tayanch o'quv reja** – o'qitiladigan fanlar nomi, hajmi hamda ularning sinflar buyicha taqsimoti belgilangan me'yoriy hujjat.

**O'quv dasturlari** – o'quv rejada belgilangan fan hajmining mavzular bo'yicha ketma-ketlikda taqsimlanishi.

Baholash tizimi standart bo'yicha egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini aniqlaydigan mezon hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida Davlat ta'lim standartlariga asoslangan xolda umumta'lim fanlarini o'rganish bosqichlari muayyan darajalardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq.

Mazkur standart asosida ta'lim muassasasining turi va xususiyatlarini inobatga olgan xolda davlat attestatsiyasi uchun umumta'lim fanlari bo'yicha nazorat-baholash ko'rsatkichlari, o'quv dasturlari ishlab chiqiladi va vakolatli vazirlik, idoralarning buyruqlari bilan tasdiqlanadi.

Umumta'lim fanlari buyicha umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti quyidagilarni belgilab beradi:

- o'quv fanining maqsad va vazifalarini;
- umumta'lim fanlarini o'rganishning mazmunini;
- tayanch va fanga oid umumiy kompetentsiyalarni;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari bitiruvchilarining umumta'lim fanlari buyicha tayyorgarligining zarur va etarlicha darajasini hamda ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi ustuvorligidan kelib chiqib ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetentsiyalar shakllantiriladi:

Kommunikativ kompetentsiya ijtimoiy vaziyatlarda eng avvalo ona tilida hamda birorta xorijiy tilda uzaro samarali muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatini nazarda tutadi.

Ikkinchi tayanch kompetentsiya axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi hisoblanib, u media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, ularning xavfsizligini ta'minlash ko'nikmalarini egallashni hamda mediamadaniyatga ega bo'lishni anglatadi.

O'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiyasi esa doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruxiy va intellektual rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, bilim va tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z hatti-harakatini adekvat baholash va mustakil qaror qabul qila olishni bildiradi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lishni anglatadi.

Milliy va umummadaniy kompetentsiya vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lishni, badiiy va san'at asar-larini tushunish, orasta kiyinish, madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilishdan iborat.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiyasi aniq hisob-kitoblarga asoslangan xolda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish, kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma va diagrammalarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish ko'nikmalarini nazarda tutadi.

Umumta'lim fanlari o'quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirish vositasi hisoblanadi. Shuningdek, har bir umumta'lim fanining mazmunidan kelib chiqqan xolda o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetentsiyalar ham shakllantiriladi.

Respublikamizda umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari buyicha kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarining kontseptual modeli ishlab chiqilgan.





Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Davlat ta'lim standartining tarkibiy qismlariga qanday izoh berish mumkin?

2. Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarining kontseptual modelining tarkibiy qismi nimalardan iborat?

3. Umumta'lim fanlari buyicha umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti nimalarni belgilab beradi?

4. Kommunikativ kompetentsiyaga izoh bering.

5. Axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi qanday konsepsiya?

6. O'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiyasi qanday konsepsiya?

7. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi qanday konsepsiya?

8. Milliy va umummadaniy kompetentsiya qanday konsepsiya?

9. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiyasini izohlab bering.

Мавзунини ўзлаштиришда қайси омиллар ҳисобга олинди

Мавзунини ўзлаштиришда қандай омиллар ҳисобга олинмади

Рўйхатга яна қандай омилларни киритиш мумкин

Масаланинг яна қайси жиҳатларига эътибор бериш зарур

?

### **III.TA'LIM MAZMUNI VA UNI KOMPETENSIYAVIYYONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING EMPERIK O'RGANILGANLIGI**

#### **III.1.O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari**

Bolalarda predmetlararo kompetensiyalarni ta'lim bosqichlarida shakllantirish uchun tegishli predmet kompetensiyasining o'sish dinamikasi yozib chiqiladi.

Kompetensiyalarni shakllantirishni dars jarayoniga kiritish uchun ularni faoliyat shaklida berish kerak.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi”dan o'rin olgan Kadrlar tayyorlash milliy modeli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sonli qarori (“Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”)dan kelib chiqadigan vazifalar uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan ta'lim–tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida keng ko'lamli izlanishlar olib borishni taqoza etadi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarining ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalarni o'rganish uzluksiz ta'lim jarayoniga kompetensiyali yondashuvni tatbiq etish zarurligini ko'rsatdi.

Uzluksiz ta'lim jarayoniga kompetensiyali yondashuvni tatbiq etish orqali quyidagi vazifalarni amal oshirish:

- Davlatimizning kelgusida jamiyat, fan, ishlab chiqarish va shaxsning mustaqil hayotdagi muammolarni hal etishga qodir yoshlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini qondirish maqsadida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda ijodiy qo'llashga o'rgatish;

- Ta'lim mazmunini muammoli o'quv vaziyatlarni yaratish orqali o'rganish asnosida o'quvchilarning fan asoslarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, qiziqishlarini rivojlantirish, shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish;

- O'quvchilarning o'quv–bilish faoliyatini aniq ob'ektlarga qaratish va mavjud muammolarni hal etishga o'rgatish orqali DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish barobarida o'quvchilar tomonidan ijodiy faoliyat tajribalarini egallanishiga erishish;

- O'quvchilarni aniq amaliy faoliyatga tayyorgarligini orttirish orqali kasbga, ijodiy faoliyat tajribalarini rivojlantirish natijasida fan yo'nalishiga yo'llash;

- Fanlardan o'zlashtirilgan ilmiy-nazariy bilimlarini aniq va jarayonli muammoli vaziyatlarda amaliyotda qo'llash orqali o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash imkoniyati mavjud.

Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati fanlardan tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusida kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetentsiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi.

O'quvchilar kelgusida hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning echimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetentsiyalarga ega bo'lishi lozim.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetentsiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi, umummadaniy kompetentsiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiyalarini tarkib toptirish vazifasi yuklatilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga kompetentsiyali yondashuv o'qitish maqsadlariga erishish uchun ta'lim mazmunini boyitish o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va natijalarini tahlil etishga imkon beradigan umumiy printsiplar yig'indisi sanaladi.

#### **Ular jumlasiga quyidagilarni nazarda tutish zarur:**

- O'quvchilarning mustaqil hayotdagi turli faoliyat va yo'nalishlardagi muammolarni o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalar, o'zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari, shaxsiy xulosalariga asoslanib hal etish, muammoli vaziyatlarda talab etiladigan faoliyatni maqsadga muvofiq bajarish qobiliyatlarini rivojlantirish;

- Ta'lim mazmunini tanlash va metodik ta'minotini yaratishda o'quvchilarning qiziqishlarini orttirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, axloqiy, g'oyaviy-siyosiy, ta'lim-tarbiyaviy muammolarni hal etish, didaktik jihatdan qayta ishlangan o'zida o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash, o'zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari

yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradigan o'quv topshiriqlari bo'lishiga e'tibor qaratish;

- Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda asosiy maqsad o'quvchilarda DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, shuningdek, axborot bilan ishlash, kommunikativ ko'nikmalarni egallash, matematik savodxonlik, ijtimoiy faollikka ega bo'lish, o'quv muammolarini mustaqil hal etishga doir tajribalarni egallashlariga sharoit yaratish;

- Ta'lim-tarbiya jarayonining natijalari mazkur jarayonning muayyan bosqichida erishilgan natijalar, ya'ni o'quvchilar tomonidan kompetentsiyaga asos bo'ladigan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirganlik darajalariga qarab baho berish;

- Kompetentsiyali yondashuvda – o'qitish maqsadlari o'quvchilar tomonidan o'z-o'zini anglash, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv maqsadlariga erishish yo'llarini tushunish, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish orqali jamiyat va mustaqil hayotga moslashuvi, ijtimoiylashuvi kabi ustuvor yo'nalishlarni mo'ljallash.

Kompetentsiya tarkib toptirish usullari va shaxs hayotidagi ahamiyatiga ko'ra darajalarga ajratiladi.

O'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetentsiyalar tayanch kompetentsiya, faqat o'quv fani orqali tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar xususiy kompetentsiyalar deyiladi.

<b>Adabiyotlar tahlili o'quvchilarda tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar uch darajaga ajratilishini ko'rsatdi:</b>		
1. Tayanch kompetentsiyalar – o'quv rejasidan o'rin olgan barcha o'quv fanlari mazmuni va o'qitish jarayoni orqali tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar sanaladi.	2. Umumiy (predmetli) kompetentsiyalar - o'quv rejadan o'rin olgan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematik va amaliy o'quv fanlarni o'qitishda o'zaro fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish orqali tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar nazarda tutiladi.	3. Xususiy kompetentsiyalar – ta'lim-tarbiya jarayonida DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalar asosida tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar hisoblanadi.

**O'quvchining kompetentsiyasi** – o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni echishda foydalanish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir.

O'quvchilarda yuqorida qayd etilgan tayanch kompetentsiyalarni tarkib toptirish maqsadida o'quv fani mazmunini tahlil, etishi, o'qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va guruhdan tashqari mashg'ulotlarda olib boriladigan ishlarni tizim va bir-biriga uzviy ravishda amalga oshirishni loyihalashi lozim.

Quyida fanlarni o'qitishda o'quvchilarda tayanch kompetentsiyalarni tarkib toptirish imkoniyatlari yuzasidan fikr yuritiladi.

O'qituvchilar kommunikativ kompetentsiyani tarkib toptirishni nazarda tutgan holda barcha darslarda o'quvchilarning kelgusida jamiyatda muloqotga kirishishi uchun zarur bo'ladigan og'zaki va yozma nutqni mukammal o'zlashtirishi, o'z fikrini aniq va tushunarli bayon etish, darslik va qo'shimcha adabiyotlardagi matn asosida mantiqiy ketma-ketlikda savollar tuzish, savollarga yozma va og'zaki javob yozish, o'z o'rtoqlari va ustozlar bilan muloqotda muomala madaniyati me'yorlariga amal qilish, kichik guruhlarda ishlash jarayonida guruh a'zolarining fikrini hurmat qilgan holda o'z fikrini bayon eta olish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalariga asoslangan holda o'z fikrini himoya qilish va ishontira olish, darslarda tashkil etiladigan o'quv bahslar va turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo'lgan qarorlarni qabul qila olish, o'z ona tili bilan bir qatorda horijiy tillarni o'zlashtirishiga zamin yaratishi lozim.

DTS bilan me'yorlangan quyidagi o'quv mehnati ko'nikmalari o'quvchilarda kommunikativ kompetentsiya tarkib toptirishga asos bo'ladi:

O'quv adabiyotlari bilan ishlash ko'nikmalari:

- O'quv adabiyotlarining kirish qismida berilgan ko'rsatmalarni bilish va qo'llash;
- Rang bilan ajratilgan iboralarni ajrata olish;
- O'quv adabiyotning mundariyasi asosida mo'ljal olish;
- Simvollar va tayanch signallarni bilish va foydalanish;
- Kolontitullardan foydalanishni bilish;
- Ko'rsatmalardan foydalana olish.

Matn ustida ishlash ko'nikmalari:

- O'qilgan matnga reja tuza olish;
- Matndan foydalanib savollarga javob topish;
- Matndan foydalanib ma'ruza yozish;
- Darslik matnidan foydalanib amaliy xarakterdagi topshiriqlarni

bajara olish;

- Darslik matnidan foydalanib jadval, diagramma, sxemalar tuza olish;
- Darslik matnidan foydalanib tushuncha, qoidalarni topa olish;
- Ob'ektning tavsifini tuzish, xulosa yasash.

O'quvchilarda yuqorida qayd etilgan o'quv mehnati ko'nikmalarining tarkib toptirilishi uchun o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Shuni qayd etish kerakki, o'quv mashg'ulotlarida didaktik o'yin texnologiyasining konferentsiya, matbuot konferentsiyasi, o'yin mashqlar, hamkorlikda o'qitish texnologiyasining kichik guruhlarda ishlash, komandada o'qitish, "Ajurli arra" yoki "Zigzag", "Birgalikda o'qiyamiz" metodlari, muammoli ta'lim texnologiyasini "Aqliy hujum", "Keys-stadi" metodlaridan foydalanish orqali o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish barobarida kommunikativ kompetentsiyalarni rivojlantirish imkoniyati mavjud.

O'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyalarni rivojlantirishda turli kechalar va tanlovlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetentsiyasini tarkib toptirish maqsadida mavzuga oid o'quv va videofilmlardan foydalanishi, qo'shimcha adabiyotlar va internet saytlaridagi ma'lumotlarni saralashi, shu asosda o'quvchilarga referat, doklad va taqdimot materiallarini tayyorlash yuzasidan topshiriqlarni berish orqali ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishi uchun dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlardan samarali va o'z o'rnida foydalanishi zarur.

O'qituvchi to'garakning ish rejasini tuzishda o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetentsiyasini tarkib toptirish nazarda tutishi lozim.

O'qituvchi o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiyasini tarkib toptirish maqsadida o'quvchilarning mustaqil ishlari va ta'limiga e'tibor qaratishi, o'quvchilarning o'z-o'zini baholashi uchun mavzular bo'yicha standart va nostandart o'quv va test topshiriqlari bazasini yaratishi, uni kompyuter xotirasiga joylashtirib

adaptiv test topshiriqlariga aylantirishi, shuningdek, o'quvchilar bilan o'tkaziladigan ma'naviyat daqiqalarida jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga erishishga yo'naltirish talab etiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar, jumladan, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiyasini tarkib toptirish imkonini beradi.

Fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini tarkib toptirishda turli darslar, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va guruhdan tashqari mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Mazkur jarayonda o'quvchilarni tabiat va jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlar, mavzuga doir O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddolari bilan tanishtirish, aqliy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasiga e'tibor qaratish, muayyan kasbni mukammal egallash orqali Vatan ravnaqiga hissa qo'shish, jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, insonlarga mehr-muruvvat ko'rsatish, saxovatli bo'lishga undash zarur.

O'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini tarkib toptirishda o'qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va guruhdan tashqari mashg'ulotlarda olib boriladigan ishlar muhim o'rin tutadi.

Tabiat muhofazasiga oid kechalar, ko'kalamzorlashtirish tadbirlari, taniqli yozuvchilar va olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazish o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini tarkib toptirishga zamin tayyorlaydi.

O'quvchilarda umummadaniy kompetentsiyalarni tarkib toptirish uchun o'qituvchi fanlarni o'qitishda o'quvchi-yoshlar ongi va qalbiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish, xalqning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish, orasta kiyinish, yurish – turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish, aqliy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasi barobarida estetik tarbiyaga e'tibor qaratishi lozim.





O'quvchilar bilan o'tkaziladigan mavzuli kechalar, tadbirlar, uchrashuvlar, shanbaliklar o'quvchilarda umummadaniy kompetensiyalarni tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilarda matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirishda o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida hisoblashga doir turli masalalar, nostandart o'quv topshiriqlari bilan ishlashni yo'lga qo'yishi lozim.

O'qituvchi o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirish barobarida ularda umumiy (predmetli) kompetensiyalarni tarkib toptirishga ham e'tibor qaratishi lozim.

O'qituvchi ta'lim tarbiya jarayonida o'quvchilarda yuqorida ko'rsatilgan kompetensiyalarni har bir mavzuni o'rganish jarayonini loyihalashda dastlab shu mavzu mazmunidagi bilim, ko'nikma va malakalar asosida tarkib toptiriladigan tayanch, umumiy va xususiy kompetensiyalarni belgilashi, darsning texnologik xaritasida mazkur masalalar o'z ifodasini topishi zarur.

O'quvchilarda DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish barobarida tayanch, umumiy va xususiy kompetensiyalarni tarkib toptirish maqsadida darslarda didaktik o'yin texnologiyasining konferentsiya, matbuot konferentsiyasi, o'yin mashqlar, hamkorlikda o'qitish texnologiyasining kichik guruhlarda

ishlash, komandada o'qitish, "Klaster", "Bumerang texnologiyasi", "SWOT" taxlili, "FSMU" metodikasi, "Arra" yoki "Zigzag", "Birgalikda o'qiyamiz" metodlari, modulli ta'lim texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasining "Aqliy hujum", "Keys-stadi" metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'quvchilarda tayanch, umumiy va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni tarkib toptirishda ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida shakllantiriladigan o'quv maqsadlari muhim o'rin tutadi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'quv maqsadlarini shakllantirishi va asosda dars ishlanmalarini loyihalashi zarur.

Ushbu jadvalda o'quv maqsadlari, ularning izohi, darslarda o'quvchilarda kompetentsiyalarni tarkib toptirish bosqichlarida foydalaniladigan o'quv topshiriqlari, oraliq nazoratda kompetentsiyalarni nazorat qilish uchun foydalaniladigan nostandart test topshiriqlarining turlari va ularning murakkablik darajalari o'z aksini topgan.

O'quvchilarda tayanch, umumiy va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni tarkib toptirish muammosi fan o'qituvchilarining kasbiy pedagogik kompetentsiyalariga aniqlik kiritish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv deganda o'quvchilarni ta'lim muassasida egallagan bilimlari orqali kundalik hayotda duch kelinadigan tanish yoki notanish vaziyatlarda foydalanishga tayyorlashdir.

Mustaqillik yillarida yurtboshimiz rahnamoliklarida ta'lim tarbiya sifati va samaradorligini zamon talablari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Buning uchun davlat umummilliy dasturlari asosida barcha sharoitlar yaratildi.

Bugungi kunda ilm –fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarida jadallik bilan rivojlanishi ta'lim tizimi xodimlaridan ta'lim tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etib, har bir tizim xodimi, ayniqsa o'qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Ta'lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o'quvchilarni vatanimizni sevadigan, o'z bilimi va iste'dodiga suyanadigan hamda mustaqil ravishda zamonaviy axborot kommunikatsiya- texnologiyalaridan foydalangan holda bilim oladigan qilib tarbiyalashdan iborat. Mazkur vazifalar esa samarali darslar orqali amalga oshiriladi.

Samarali dars o`qituvchining umumiy tayyorgarligi orqali, umumiy tayyorgarlik esa uzluksiz uzviylik tamoyiliga asoslanadi. Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib ta`lim mazmuni samaradorligini oshirish o`quvchi shaxsini har tamonlama rivojlantirish maqsadida Yevropaning rivojlangan mamlakatlari hamda mamlakatimizda chet tillar bo`yicha uzluksiz ta`lim tizimining davlat ta`lim standartlari va o`quv dasturlarini ishlab chiqish tajribasiga asoslangan holda, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan umumta`lim fanlari bo`yicha uzluksiz ta`limning davlat ta`lim standartlari va o`quv dasturlari loyihalari tayyorlandi.


Davlatimiz rahbari “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan tamoyilga asoslangan holda, milliy g`oya va uning mafkuraviy negizlarini puxta ishlab chiqish, yosh avlodni bolalikdan milliy g`urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega ekanini ta`kidladi. Maktablardagi kamchiliklarni tuzatish, ta`lim sifatini nazorat qilish uchun ota-onalar, keng jamoatchilikning ishtiroki zarurligiga alohida e`tibor qaratildi. “Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o`zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak”, dedi SHavkat Mirziyoev.

Davlatimiz rahbari o`qituvchining maqomi va nufuzini oshirish, huquqlari va imtiyozlarini kengaytirish masalalariga alohida e`tibor qaratdi. “Maktab o`qituvchisini moddiy rag`batlantirmasak, uning hayot sifati darajasini oshirmasak, islohot, natija haqida gapira olmaymiz”, dedi Prezident. O`qituvchi va murabbiylarning o`zi ham bilim va kasb mahoratini oshirish, jamoat ishlarida faol ishtirok etish, halol mehnati va tashabbuskorligi bilan bu kasbning obro`sini oshirishi kerakligiga urg`u berildi.



Oiladagi ta`lim-tarbiya muhiti, ota-onalarning mas`uliyati va o`qituvchilar bilan hamkorligi masalalariga ham e`tibor qaratildi. “Moddiy va ma`naviy hayotni uyg`un rivojlantirishimiz kerak.

Maktab bu borada asosiy bo'g'in bo'lishi lozim. Maktab ta'limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur", deb ta'kidladi davlatimiz rahbari.<sup>1</sup>



Ta'lim- tarbiya jarayonida pedagoglar o'quvchilarga bilim berish bilangina shug'ullanib qolmay, balki ularda jamoaviylik, o'zaro hurmat, taniqidiy kayfiyat, sof raqobat, ilm yo'lidi izlanuvchanlik kabi qator hislatlarni singdirib boradi. Ta'kidlash joizki, bunday vaziyatlarda pedagoglar o'z ustida ishlashlari va o'zgalar ulardan namuna olishlarini unutmashliklari lozim. Dars jarayonida, bolaning individual xususiyatlari, aqliy faoliyati, irodaviy xislatlari, diqqat kuchi, tafakkuri, tasavvuri, nutqiy qobiliyatlari yuzaga chiqadi, rivojlanadi va takomillashib boradi. Ta'lim jarayonida psixologik xizmat va o'z sohasining etuk mutaxassisi bo'lgan psixologlarga o'quvchilar, qolaversa, ularning ota-onalar ham murojaat etishlari mumkin. Boladagi bo'ladigan jismoniy o'zgarishlar krizis davrlari, unig ruhiyatiga ta'sir etmay qolmaydi. Vaholanki, jismoniy o'zgarishlardan tashqari, o'zaro guruhiiy iddaolar, noodatiiy tanishuvlar, kesatiiq gaplar, kamsitishlar, faoliyatga nisbatan, shaxsga nisbatan kuchli tanqidiy fikrlar ham shaxs ongiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. SHu vaziyatlarni o'rganish, oldini olish va lozim topilgan choralarni qo'llash bilan psixologlar o'quvchilar o'rtasida normal munosobatlarni o'rnatadi. SHuningdek, o'quv jamoasi bilan ham ishlash psixologlarimizning zimmasidadir. O'quv jamoa uchun turli mavzularga

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 23 август куни халқ таълими тизимини ривожлантириш, педагогларнинг малакаси ва жамиятдаги нуфузини ошириш, ёш авлод маънавиятини юксалтириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилиши

oid suhbatlar, seminar-treningdar o'tkazish natijalarni birga tahlil etish va munosib xulosa qilish ish sur'atlarining bir qismini tashkil etadi. Pedagoglar, psixologlar, o'quvchilar hamda ularning ota-onalari yohud ularga mas'ul shaxslar bilan birga olib borilgan har qanday ta'limiy, tarbiyaviy, ma'naviy ishlar natijasi yuqori bo'ladi. Sababi, shaxsga ta'sir etuvchi omillarnin to'g'ri inobatga olinishi, bevosita va bilvosita ta'sirlarni aniqlash, oilaviy muhitni o'rganish, sinfiy muhitni mo'tadillashtirish bilan birga bola ongiga, uning ruhiyatiga salbiy ta'sir etuvchi shaxslarni va odatlarni ro'yhatini shakllantirib, birgalikda harakat qilish samaralidir

O'qituvchining o'z fanidan o'quvchilarda shakllantiradigan ko'nikma va malakalarining nimalardan iboratligi, unga qo'yilgan davlat talablari, bunga erishishning maqbul yo'llari va uslublarini hamda uning asosi, tartibga soluvchi mezonlarini bilishi o'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishning eng muhim omilidir.

Bugungi o'qituvchi qo'lida olib yurgan asosiy ish quroli hisoblangan taqvim mavzu reja va darslikning mazmunini chuqur anglay bilishi juda muhim. Buning uchun u eng avvalo, o'zi dars berayotgan fanga Davlat ta'lim standartlarida qo'yilgan talablar, ushbu talablarni bajarish uchun sinf xonasida doska oldida turib o'tiradigan dars soatlari, ya'ni o'quv rejasini hamda o'quv dasturi mazmun mohiyatini tushunib yetsagina mustaqil ravishda **“TAQVIM MAVZU REJA”** tuza oladi va pirovard natijaga erishadi.

Buning uchun, albatta, hozirgi zamon o'qituvchisidan kompetensiyaviy yondashuv talab etiladi.

Ma'lumki, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy tamoyillaridan biri o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malaka bilan birga hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish hisoblanadi. Avvalo kompetensiya so'zining ma'nosini bilib olsak: bu so'z lotincha (competere) dan olingan bo'lib, „layoqatli, munosib bo'lmoq“ degan ma'nolarni anglatadi.

Shu maqsadda **“UZLUKSIZ VA UZVIY”** tashkiliy-metodik tadbirlarini amalga oshirish tavsiya etiladi.

Ma'ruza darslarida “Aqliy hujum” seminar va amaliy mashg'ulot darsalarida o'qituvchi ko'proq o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarga murojaat qiladi. Chunki o'quv materiallarini tushuntirib berish yoki o'quvchi duch keladigan tushuncha ta'rif va qoidalar atrofida suhbat o'tkazish bilan o'ragatib bo'lmaydi. Seminar mashg'ulotlarida o'quvchi ta'lim jarayoning sub'ekti, ya'ni faol

ishlovchisiga aylanib har bir o`quv topshirig`ini aqliy faoliyat „chig`irig`i` dan o`tkazgan taqdirdagina mavzuni o`zlashtirish jarayoni ancha oson kechadi va dars mashg`ulotlarining samaradorligi ta`minlanadi. O`qitishning amaliy metodlariga tayangan o`qituvchi o`quv topshiriqlarini bajarish jarayonida o`quvchining faolligini to`g`ri uyushtira oladi va uning muvaffaqiyatli kechishini ta`minlaydi.

O`qituvchi faoliyati bilan bog`liq metodlarning eng samaralisi muammoli o`qitishdir. Taniqli rus olimi I. Qudryashev muammoli ta`lim xususida shunday degan edi: „...muammoli ta`lim o`quvchilarning ijodiy ko`nikmalarini rivojlantirgan holda bilimlarini faol o`zlashtirishini nazarda tutadi``

Aytish joizki, muammoli ta`lim o`quvchilarni faollikka undab, tafakkurini yuksaltiradi. Muammoli vaziyat esa muayyan pedagogik vositalar asosida tashkil etiladigan o`ziga xos sharoitni yuzaga keltiradi. Muammoli vaziyatning mohiyati shuki, u o`quvchi biladigan ma`lumotlar bilan yangi faktlar, hodisalar o`rtasida muayyan qaror qabul qilishning qiyinchiliklari oqibatida kelib chiqadigan holat, vaziyatdir. U muammoning kelib chiqish sabablarini, yechimini topishga undaydi.

O`quvchilarning yoshi hamda umumiy bilim saviyasidan kelib chiqqan holda muammoli vaziyatlar yaratishning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin.

1. Pedagogika darslarida berilgan mavzularni qiyoslab o`rgatish orqali muammoli vaziyat yaratish.

O`rganiladigan har bir mavzu o`quvchilardan o`qish, o`rganish, fikr-mulohaza yuritish asosida bilganlarini bayon etishni talab etadi. Bu hol o`z-o`zidan ravshanki, muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. O`quvchilarda „Nima uchun?“ degan savolga javob izlashga ehtiyoj tug`iladi. Masalan, „Tarbiya shakllari“ mavzusi o`rganilayotganda o`quvchi tarbiyaning shakllarini izohlashi, misollar keltirishi talab etiladi. O`quvchilar bu topshiriqlarni bajarish asosida umumlashma hosil qiladilar.

2. Muammoli savollar berish orqali muammoli vaziyat yaratish.

O`qituvchi dars mashg`ulotini muammoli savolni o`rtaga tashlash bilan boshlaydi. Masalan:

1. Ahloqiy va aqliy tarbiyaning o`xshash va farqli tomonlarini tushuntiring.

2. Mehnat tarbiyasi orqali estetik tarbiya singdiriladimi?

3. Jismoniy tarbiyaning mehnat tarbiyasi bilan o`xshash tomonlarini tushuntiring.

Pedagogika fanini o'qitish yoshlarni bilimini, dunyoqarashini, muomala ma`daniyatini o`stirishga keng imkoniyat yaratadi.

Ular o`qituvchi rahbarligida tabiat hodisalarini, kishilarning mehnat faoliyatlarini kuzatadilar, o`rtoqlari bilan fikr almashadilar. O`qituvchi va boshqalarning munosabat me`yorlari asosidagi nutqlarini eshitadilar, kitob o`qiydilar, o`rganadilar, shu bilan birga bilim, ko`nikma, makakaga ega bo`ladilar.

Amaliy va seminar darslarida turli xil o`yinlardan, topshiriqlardan, bellashuvlardan foydalanilsa o`quvchining muammoli vaziyatdan tez va oson chiqib ketishga sharoit yaratiladi. Bunda faqat o`qituvchidan ijodkorlik hamda bilim talab qilinadi.

Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, o`zimizning pedagogik tajribamiz pedagogika oliy o`quv yurtida o`quvchilar - bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarini kompetensiyaga asoslangan holda o`qitishning quyidagi tamoyillarini ajratib ko`rsatish imkonini berdi.

Ta'limning rivojlanish xarakteri printsipi, bu o'quvchining shaxsiyati va individualligini har tomonlama rivojlantirishga, shuningdek, bo'lajak o'qituvchining umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalarni o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilishini nazarda tutadi.

Talabalar faoliyati printsipi va o'quvchilar faoliyatiga pedagogik rahbarlik ulushining pasayishi. Ta'lim jarayoni shunday qurilishi kerakki, asosiy e'tibor o'qituvchining o'qituvchilik faoliyatidan, o'qituvchining tashabbusi va ijodiga asoslangan ta'lim faoliyatiga o'tkazilishi kerak, u o'zi rejalashtiradi, savol beradi, vazifalar qo'yadi va baholaydi - keng ma'noda o'qitadi. talabalarning o'zlari. Ya'ni, talabalar o'quv jarayonini amalga oshirishda ham, baholashda ham faol ishtirokchilarga aylanishi kerak. Aynan shunday vaziyatda, bizningcha, uzluksiz bilim olish, biror narsadan bexabarlik insonning tabiiy holati ekanligini tushunish, doimiy shaxsiy va kasbiy rivojlanish manbai bo'lgan ruh hukmronlik qiladi.

**Ta'lim jarayonida faollik tamoyiliga amal qilish, bizning fikrimizcha, quyidagilarni nazarda tutadi:**

Talabalarning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish;	Talabalarning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish;	Talabaga mustaqil tanlash imkoniyatini berish (masalan, vazifalar, tadqiqot mavzulari, pedagogik muammoni hal qilish usuli);
--	--	--

O'qitishning faol usullaridan foydalanish: muammoli ma'ruza, muayyan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish bilan ma'ruza, bahslar, muhokamalar, o'zaro trening va o'zaro maslahatlashuv.

Ilmiy tamoyil kasbiy ta'lim mazmuni o'quvchilarni ob'ektiv ilmiy faktlar, nazariyalar, qonuniyatlar bilan tanishtirishni, fanning hozirgi holatini aks ettirishni talab qiladi. Ilmiy bilimlarni integratsiyalashuvi, boshlang'ich ta'lim sohasidagi muammolarning mohiyatini turli ilmiy fanlar nuqtai nazaridan chuqur anglash, deb hisoblaymiz. va boshqalar biz uchun muhim.

O'qitishni amaliyot bilan bog'lash tamoyili universitetdagi o'quv jarayoni olingan bilimlarni kasbiy pedagogik faoliyatda amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Biz ushbu tamoyilni amalga oshirish qoidalariga quyidagicha murojaat qilamiz:

Fanlarni o'rganish jarayonida ko'plab pedagogik va uslubiy muammolar va vazifalarni hal qilish professional tsikl, shuningdek uzluksiz pedagogik amaliyot jarayonida;

Kasbiy tsikl fanlarining har bir tematik bo'limi ham an'anaviy pozitsiyalardan, ham boshlang'ich maktab o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalash texnologiyalari, o'quv-uslubiy majmualar o'zgaruvchanligi prizmasida ko'rib chiqiladi. boshlang'ich maktab(zamonaviy boshlang'ich ta'limda ulardan o'ndan ortiq), shuningdek me'yoriy hujjatlar (bugungi kunda bu LEO Federal Davlat Ta'lim Standarti va uning bajarilishini ta'minlaydigan hujjatlar);

Kasbiy bilim va ko'nikmalarni amaliy qo'llashga qaratilgan usullardan foydalanish: boshlang'ich maktab fanlari va sinfdan tashqari mashg'ulotlar bo'yicha darslarni loyihalash, taqdim etish va tahlil qilish, mikro-ta'lim, mahorat darslari va boshqalar.

Oxirgi tamoyilni amalga oshirishda pedagogik amaliyotga katta ahamiyat beramiz, uning maqsadi talabalarni ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'qituvchisi sifatida mustaqil kasbiy va pedagogik faoliyatga amaliy tayyorlashdir.

Pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazishda quyidagilar nazarda tutiladi:

Talabalarning yangi bilimlarni o'zlashtirishga qiziqishi, faolligi, ijodiy mustaqilligini oshirishga, ko'nikma va ko'nikmalarni shakllantirishga, ularni qo'llashga yordam beradigan shakllar, usullar va o'quv vositalaridan foydalanishni o'z ichiga olgan talabalar faoliyatini



faollashtirish. amaliyot, shuningdek, kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishga e'tibor berish;

Kasbiy-pedagogik faoliyatning nazariy asoslarini va demak, amaliyotni o'tish bosqichlarining vazifalari va mazmunining o'rganilayotgan o'quv fanlari bilan muvofiqligini hisobga olgan holda;

Didaktika, boshlang'ich maktab o'quvchilarini tarbiyalash nazariyasi, psixologiya, xususiy metodlar bo'yicha maxsus ishlab chiqilgan topshiriqlarni, shuningdek, guruh ijodiy topshiriqlarini, loyihalarni amaliyot jarayonida bajarish;

Metodist boshchiligidagi guruh tomonidan darslarga va sinfdan tashqari ishlarga qatnashish va tahlil qilish;

O'quvchilarni o'z ishiga jalb etgan holda maktablar bilan hamkorlikda ilmiy-uslubiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish;

Pedagogik amaliyotni o'tashda talabalarning kasbiy qiziqishlari va istaklarini inobatga olgan holda, talabalar bilan propedevtik ish olib borish, o'quvchilarning pedagogik madaniyat darajasini oshirish maqsadida zamonaviy boshlang'ich ta'lim muammolari bo'yicha turli ilmiy-metodik tadbirlar tashkil etish. , ularning moyilliklari va qiziqishlarini aniqlash.

Pedagogik amaliyotning har bir bosqichi yakunida talabalar stajyor-talabaning kundaligini tuzadilar va tekshirishga topshiradilar, yakuniy konferensiyalarda talabalar pedagogik amaliyotdan o'tganligi to'g'risida hisobot taqdim etadilar; natijalarini e'lon qiladigan hisobotlarni tuzadilar tadqiqot ishlari, ijodiy loyihalar.

Bo'lajak o'qituvchini kompetensiyaga asoslangan o'qitishning muhim tarkibiy qismi talabalarni joriy, oraliq va yakuniy attestatsiyadan o'tkazish tartibini o'zgartirishdir.

Talabalarni tayyorlash sifatini baholash, bizningcha, ikki yo'nalishda amalga oshirilishi kerak: fanni o'zlashtirish darajasini baholash (kognitiv komponent); talabalarning malakasini baholash (faoliyat komponenti).

**Talabalarning kasbiy kompetensiyalarining rivojlanish darajalarini, bizning fikrimizcha, quyidagicha tavsiflash mumkin:**

**Yuqori daraja:** talaba kasbiy bilimlar tizimiga ega, taklif qilingan savollarni turli pozitsiyalardan ko'rib chiqadi, nazariy qoidalarni o'z misollari bilan tasdiqlaydi; kasbiy bilimlarni yangilash va muayyan pedagogik vaziyat shartlaridan kelib chiqib to'g'ri yechim topishni biladi;

**O'rta daraja:** talaba ushbu masalalar bo'yicha nazariy qoidalarni asosli, to'liq, amaliyotdan misollar bilan tasvirlab beradi; pedagogik muammoga o'z yechimini taklif qiladi;

**Past daraja:** talaba taklif qilingan savollar bo'yicha asosiy nazariy qoidalarni taqdim etadi; pedagogik muammoni hal qilish qobiliyatini ko'rsatadi.

Mavzu yisidan nazorat savollari:

1. Uzluksiz ta'lim jarayoniga kompetentsiyali yondashuvni tatbiq etish orqali qanday vazifalarni amal oshiriladi?
2. Ta'lim-tarbiya jarayoniga foydalaniladigan umumiy printsiplar ni yoriting.
3. Kompetentsiya tarkib toptirish usullari va shaxs hayotidagi ahamiyatiga ko'ra qanday darajalarga ajratiladi?
4. O'quvchining kompetentsiyasi nimalarda namoyon bo'ladi?
5. O'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyalarni rivojlantirishda qanday tadbirlardan foydalanish mumkin?
6. O'quvchilarda umummadaniy kompetentsiyalarni tarkib toptirish uchun o'qituvchi nimalarga e'tibor berishi kerak?
7. Samarali dars o'qituvchining qanday harakatlariga asoslanadi?
8. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarining rivojlanish darajalarini qanday tavsiflash mumkin?



Xulosa qilib aytganda demak, kompetetlilik deganda shaxsning bilim, ko`nikma va tajribalari, ijtimoiy professional mavqeyiga haqiqiy mosligi va o`ziga tegishli vazifalarni bajarish muammolarni hal qilishga qodirligi tushuniladi, o`quvchilarda kompetentsiyalarni tarkib toptirish muammosi o`qituvchilarning kasbiy pedagogik kompetentsiyalariga aniqlik kiritish, pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida kompetentsiyaviy yondashuv talablari asosida kurslarning mazmunini yangilash, shu asosda o`qitishni tashkil etish va boshqarish davr talabi sanaladi .

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan[5].

Zamonaviy yondashuvlar o'qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zaro integratsiyalash orqali o'quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta'lim, umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo'g'inlaridagi o'zgarishlarga ta'siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta'lim natijalariga erishish konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, shaxsni

rivojlantirishga yo'naltirilgan, ijtimoiy va ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O'qituvchilarning kompetentligini oshirishning o'quv-metodik ta'minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga yo'naltirilgan fanlarni o'qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog'liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg'ulotlar asosida o'qitish ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda[6].

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida - uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o'qitish metodikasini takomillashtirish, asosiy fanlarni chuqur o'rganishga e'tiborni qaratish, davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan pedagogik faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan[2].

Bu esa ushbu fanlar misolida o'qitish metodikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni va o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirishdagi zaruriy tayanch va fanga oid kompetensiyalar tarkibini aniqlashtirish, tayanch va fizika faniga oid umumiy kompetensiyaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirish modeli va metodlarini takomillashtirish zaruratini asoslaydi.

### **Ta'lim mazmuni va uni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish bo'yicha rivojlantiruvchi intrefaol ta'lim metodlari bilan tanishamiz.**

Zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishga imkon beradigan yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishdan iborat bo'lib, shu orqali bolalarni shakllantirishning ijtimoiy buyurtmasini bajaradi. zamonaviy maktab hayotiy vaziyatlarda erkin harakatlanish, jamiyatning faol a'zosi bo'lish, o'z tamoyillari va qarashlariga ega bo'lish hamda ularni himoya qila olish imkonini beradigan fazilatlar.

**1. “Blits-so'rov” (inglizcha “blits” – tezkor, bir zumda) metodi** berilgan savollarga qisqa, aniq va lo'nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Unga ko'ra o'qituvchi o'rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan

savollarni ishlab chiqadi va talabalarning e'tiborlariga havola etadi. Talabalar berilgan savolga qisqa muddatda, qisqa va aniq javob qaytara olishlari lozim. Guruh yoki juftlikda ishlashda bir nafar talaba berilgan savolga javob qaytaradi, uning sheriklari yoki guruhdoshlari javobni to'ldirishlari mumkin. Biroq, fikrlar takrorlanmasligi lozim. Metodni qo'llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g'oyalarning mohiyati talabalar tomonidan og'zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

Bu metoddan o'qituvchilar deyarli barcha darslarda ( ma'ruza, seminar ) bitta mavzu yoki bir nechta mavzular yuzasidan talaba-o'quvchilarning bilimlarini sinab ko'rishi mumkin.

**2. “Modellashtirish” (“modulus” – o'lchov, me'yor) metodi** talabalarda o'zlashtirilgan mavzu, masala yoki hal qilingan muammo yuzasidan mantiqiy fikrlash, mavzu, masala yoki hal qilingan muammoning umumiy mohiyatini model (shartli belgi)lar yordamida tasvir shaklida ifoadlay olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodni qo'llashda tanlangan ob'ekt mohiyatini, muhim xususiyatlarini, ustuvor jihatlarini to'la ochib berishga alohida e'tibor qaratiladi. Mashg'ulotlarda ushbu metoddan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: 1) talabalar mavzu (masala, muammo) mohiyatini puxta anglaydilar; 2) mavzu (masala, muammo) mohiyatini to'laqonli ifoda etadigan asosiy jihatlar, tayanch tushunchalarni ajratadilar; 3) ular yordamida umumiy modelni yaratadilar; 4) model yordamida o'rganilgan mavzu (masala, muammo)ning mohiyati to'g'risida jamoaga ma'lumot beradilar; 5) taklif etilgan modelning maqsadga muvofiq yaratilganligi, mavzu (masala, muammo) mohiyatini ochib bera olishi jamoa tomonidan muhokama qilinadi.

**3. “Galereyani aylanish” metodi** talabalarda kichik guruhlarda ishlash, mavzuga oid muayyan muammoni hal qilish, muammo yuzasidan shaxsiy mulohazalarni bildirish, fikrni dalillash va himoya qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Kichik guruhlarga turli muammolarni echish topshirig'i beriladi. Har bir guruh belgilangan vaqt ichida berilgan muammoning echimini topish ustida ishlaydi. Muammoning echimi yozma ravishda bayon qilinib, boshqa guruhlarga topshiriladi. Qolgan guruhlar echimning to'g'riligini baholaydi va echim tugal bo'lmasa, matnni o'z

variantlari bilan to'ldiradilar. So'ngra barcha guruhlarning echim borasidagi fikrlari umumlashtirilib, eng to'g'ri javoblar tanlanadi.

**4. “Sindikat” metodi** talabalarda mavzu (masala, muammo)ni ijodiy o'rganish, nazariy bilimlarni umumlashtirish, tizimlash asosida qisqa, aniq bayon qilish qobiliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. Metodni qo'llash jarayonida talabalar uchta kichik guruhlariga bo'linadilar. Har bir guruh yagona topshiriqni uch xil variantda hal etishlari lozim. Masalan, tarbiya jarayonining mohiyatini 1–guruh sxema, 2–guruh klaster, 3–guruh esa jadval tarzida ochib berishlari kerak. Guruhlar topshiriqni bajarib bo'lishgach, ular tomonidan taqdim etilgan echim (ishlanma)lar jamoa tomonidan muhokama qilinadi.

**5. “T-jadval” texnologiyasi** o'rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini yoritish maqsadida bir necha asosiy belgi, tayanch tushunchalarning mazmuni ularni bir-biri bilan o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida ochib beriladi. Ko'p hollarda mazkur texnologiya mavzu asosini tashkil etuvchi bir necha holatlarning afzalliklari yoki kamchiliklarini, samaradorlik va samarasizlik darajasini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo'llaniladi.

*“T-jadval” metodidan foydalanish uchun quyidagi sxema taqdim etiladi:*

Jamo va shaxs o'rtasidagi munosabat mohiyati	
O'quvchilar jamoasining shaxsga ta'siri	Shaxsning o'quvchilar jamoasidagi o'rni
1.	1.
2.	2.
3.	3.
...	...

**6. “Davralar” metodi** talabalarda o'rganilayotgan mavzu (masala, muammo) yuzasidan mustaqil, mantiqiy fikrlash, boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni tinglay olish, ularni to'ldirish, shaxsiy fikrlarini asoslash va xulosa chiqara olish qobiliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Metodni qo'llashda talabalar davra qurib o'tirishlari, o'rtaga tashlangan savol yuzasidan o'z tushunchalarini bayon etishlari lozim. Bunda talabalar o'zlariga navbat kelishini kutib o'tirmasdan, mavzu (savol, masala, muammo) yuzasidan bilganlarini ayta olishlari kerak. Metodni qo'llashda har bir talabaning ishtiroki ta'minlanishi, muhokamaga o'z hissalarini qo'shishlari muhim sanaladi. Zero, metodning asl maqsadi mavzu yuzasidan har bir talabaning fikrini bilishdir. Har bir talaba tomonidan fikr bildirilayotganda uning so'zini bo'lish, qo'shimcha qilish hech hech kimga, hatto o'qituvchiga ham ruxsat etilmaydi. O'qituvchi muhokamaning yakunida bildirilgan fikrlarni umumlashtirishi, talabalarning ishtiroklari darajasini ko'rsatib o'tishi mumkin. Ushbu metod, odatda, mashg'ulotning boshlanishi yoki yakunida qo'llaniladi.

**7. “Bahs-munozara” metodi** ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan muayyan vaqt oralig'i va qat'iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og'zaki bahsi bo'lib, talabalarda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quv mashg'ulotlarida bahs-munozaradan foydalanishda mavzuga doir ma'lum masalalar hal qilinadi.

### **8. “SWOT-tahlil” metodi.**

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S – (strength)</b>	• кучли томонлари
<b>W – (weakness)</b>	• заиф, кучсиз томонлари
<b>O – (opportunity)</b>	• имкониятлари
<b>T – (threat)</b>	• тўсиқлар

Namuna:Hamkorlik pedagogikasining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Hamkorlik pedagogikasidan foydalanishning kuchli tomonlari	
W	Hamkorlik pedagogikasidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	
O	Hamkorlik pedagogikasidan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	
T	To'siqlar (tashqi)	

### **9. "Xulosalash" (Rezyume, Veer) metodi**

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### **10. "Tushunchalar tahlili" metodikasi**

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi



mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna: “Tayanch tushunchalar tahlili**

Mavzuga oid so'zlar ( Ta'lim mazmuni va uni kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish)

<b>Tushunchalar</b>	<b>Tushunchalarning mazmuni</b>	<b>Qo'shimcha ma'lumotlar</b>
<b>Kompetentsiya</b>		
<b>O'quv jarayoni</b>		
<b>Darslik</b>		
<b>Malaka</b>		
<b>Ko'nikma</b>		
<b>Takomillashtirish</b>		
<b>Individuallik</b>		
<b>Hamkorlik</b>		
<b>Ta'lim mazmuni</b>		
<b>DTS</b>		

**11.«FSMU» metodi**


Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan

mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

-qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;

-har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:



-ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

### **Namuna!**

Fikr: "Yosh avlod O'zbekiston Respublikasining poydevori".

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

### **12. "Insert" metodi**

Metodning maqsadi: Mazkur metod o'quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod o'quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

□ o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;

□ yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;

□ ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etadi.

<b>Belgilar</b>	<b>1- matn</b>	<b>2- matn</b>	<b>3- matn</b>
<b>“V” – tanish ma'lumot.</b>			
<b>“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak</b>			
<b>“Q” bu ma'lumot men uchun yangilik.</b>			
<b>“_ ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?</b>			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

### **13."BUMERABG" texnologiyasi**

Bugungi mashg'ulotdan nimalarni bilib oldingiz	Nimalarga o'rgandingiz	Nimalar sizlar uchun yangilik bo'ldi	Yana nimalarni bilishni istar edingiz

#### 14. «Keys-stadi» metodi

«Keys-stadi» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), QandayGʻ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

#### «Keys metodi» ni amalga oshirish bosqichlari:

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	<input type="checkbox"/> yakka tartibdagi audio-vizual ish; <input type="checkbox"/> keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); <input type="checkbox"/> axborotni umumlashtirish; <input type="checkbox"/> axborot tahlili; <input type="checkbox"/> muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	<input type="checkbox"/> individual va guruhda ishlash; <input type="checkbox"/> muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; <input type="checkbox"/> asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining echimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	<input type="checkbox"/> individual va guruhda ishlash; <input type="checkbox"/> muqobil echim yoʻllarini ishlab chiqish; <input type="checkbox"/> har bir echimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish;

	<input type="checkbox"/> muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<input type="checkbox"/> yakka va guruhda ishlash; <input type="checkbox"/> muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; <input type="checkbox"/> ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; <input type="checkbox"/> yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

### **Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

#### **Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushurish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

### **“Ta’lim mazmuni va uni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish” mavzisini o’rganish yuzasidan keyslar va mustaqil ta’lim yuzasidan ko’rsatmalar**

#### **Keyslar to’plami**

#### **Keys-stadi texnologiyasi**

“Case” so’zi, lotincha “casus”- “voqea, hodisa” so’zidan kelib chiqqandir. Boshqacha aytganda, bu tushuncha hayotda yuz beradigan qandaydir voqea yoki hodisani, aniq bir vaziyatning tafsilotini anglatadi. Umuman olganda, keys – stadi (aniq bir holat yoki vaziyat), muayyan jarayonida sodir bo’ladigan haqiqiy voqelikni so’zlar, raqamlar, obrazlarda ifoda etishda namoyon bo’ladi. Bundan tashqari, bu ifoda ta’lim sohasida, hodisa yoki vaziyatni tadqiq etish uchun ishlatiladigan axborot, stenografiya sifatida qo’llaniladi. Keys-stadi hodisa yoki

vaziyatni oddiy tafsilotidan farqli o'laroq, u o'quv materialini o'zlashtirish uchun ko'maklashuvchi axborotni o'z ichiga oladi, bunga duch kelgan muammoni aniqlash va uning echim yo'llarini izlash orqali erishiladi. Keys-stadi, muayyan o'quv maqsadli bilim olish vositasi sifatida ishlab chiqilishi zarur. Ushbu maqsadlar keng ko'lamli bo'lib, axborotlar, ma'lumotlar yoki tafsilotlar bilan ta'minlanishini nazarda tutadi, ular muayyan qarashlar yoki usullarni namoyish etishda qo'llanilishi mumkin. "Keys-stadi" atamasini o'qitish va tadqiq etish yo'nalishlarida qo'llashda turlicha yondashish zarurligini alohida qayd etish lozim.



Mutaxassislar mazkur termini tashkilotlarni jadal o'rganish, ifodalash va tahlil etish uchun ishlatadilar, uning natijasida yangi nazariya yaratiladi mavjud nazariya tekshirib ko'riladi, yangi echimlar aniqlanadi

Keys usul birinchi marta Garvard biznes-aktabida bo'lg'usi advokatlarni amaliy malakalarga o'rgatishda ishlatila boshlangan edi.

Vaziyatlar mazmuni va tafsilotini ifodalashning turli xil ko'rinishlari mavjud. Keys-stadi bor-yo'g'i bir necha iboralardan tortib, yuzlab varaqlardagi hajmgacha ega bo'lishi mumkin. Yirik hajmdagi

keys-stadiga duch bo'lgan tahsil oluvchilar, odatda keys-stadining tafsiloti qanchalik yirik bo'lsa ular shunchalik murakkab deb hisoblaydilar. Bu noto'g'ri xulosadir – chunki ko'pchilik qisqa keyslar chigalroq bo'ladi. Keysni tuzishda muayyan vaziyatni ifodalash uchun uning yozma shaklidan foydalanish shart emas. Vaziyatlarni ifodalash uchun fotografiya, videofilmlar, audioyozuvlar yoki slaydlardan foydalanish mumkin. Barcha ushbu vositalar tahsil oluvchilarga vaziyatni haqiqatga yaqinroq gavdalantirishga yordam beradi. Shu bilan birga yozma shakldagi axborot masalan fotografiya shaklidagi axborotdan ko'ra qayta ishlash va tahlil etish uchun qulayroqdir. Bu hollarda fotografiyalarni yozma shakldagi axborot bilan to'ldirish zarur. Yozma keyslarni o'rganish tajribasi bo'lgan tahsil oluvchilarni o'qitishda multivositalar axborotlaridan foydalanilgan keyslarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Keys-stadi (muayyan vaziyatlar) individumlar, sheriklar, guruhlarda, korxonalarda, hattoki butun bir mamlakat miqyosida o'zining ta'lim xususiyatiga ko'ra nazarga keluvchi muammolarni ifodalashi mumkin. Keyslar ta'limning turli sohalarida: biznes, boshqaruv, tibbiyot, arxitektura, qurilish, hamda nostandart muammolar majmuasi echimini qabul qilish malakasini talab etadigan barcha fanlarda qo'llanilishi mumkin.

“Keys-stadi” yordamida o'qitishda muammolar aniqlanadi, echimlar topiladi, tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Sifatli keys-stadilar, ularni tayyorlash, rasmiylashtirish va tekshirish uchun ko'p vaqt talab etadi. Shu bilan birga to'g'ri tuzilgan va o'quv faniga kiritilgan keys-stadi, fanni o'zlashtirishda ko'zlangan natijalarga erishishga imkoniyat beradi.

Ishchan keys-stadilar tuzishning quyidagi ketma-ketligiga rioya qilinish tavsiya etiladi.

Keysni o'rganish maqsad va vazifalarini ishlab chiqish - mazkur bosqichda o'qituvchi o'qitiladigan fan bo'yicha tahsil oluvchi o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim va malakalarga o'z e'tiborini qaratadi. Oldin o'rganilgan material bilan qo'yilgan maqsadning so'zsiz muvofiqligi ko'zda tutilgan bo'lishi zarur. Keys-stadilarni tuzish va qo'llashning asosiy printsiplari etarli darajada umumiydir.

Keysning maqsad va vazifalariga muvofiq materiallar tanlash - keysning materiali muammoni ochib berishi lozim va mazkur muammo keys oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga mos bo'lishi kerak. Keyslar haqiqiy vaziyatlarni aniq tafsilotini namoyish etishlari yoki biroz

muallifni ijod natijalardan qo'shilgan bo'lishi mumkin. Keyslar uchun ma'lumotlar va materiallari sifatida yuqorida ko'rsatilganidek, gazeta maqolalari, tashkilotlarning hujjatlari, u yoki bu sohadagi tashkilotning faoliyati bo'yicha xususiy kuzatuvlar, mutaxassislarning fikri, iste'molchilarning fikri, statistika qo'mitasi ma'lumotlari, diagramma fotohujjatlar, multimedia materiallari, slaydlar va h.k. xizmat qilishi mumkin.

Materiallarni birlamchi qayta ishlash. -Ushbu bosqichda olingan ko'p sonli axborotlardan, keys-stadi maqsadlariga mos keluvchi, foydalisini tanlab olinadi. Keys-stadida qo'llaniladigan integrallashgan tahlil, ko'p shakllarga ega bo'lishi mumkin. U asosan qo'shimcha ma'lumotlarni tarmoq hisobotlari, texnik hujjatlar, kompaniyalar hisobotlari, shaxsiy tajribalar va h.k. kiritish va tahlil etishdan iborat.

**Keys turini aniqlash.** - Keys-stadi tayyorlash usuli bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin. Yozilish joyiga ko'ra keys-stadilar "maydonda" (ya'ni ob'ektda – firma yoki kompaniyada) yoki o'qituvchining ish stolida tayyorlanishi mumkin bo'lsa, keys stadida foydalaniladigan manbalar rasmiy (ya'ni nashr etilgan) yoki norasmiy (ya'ni dastlabki manbalardan olingan) ko'rinishga ega bo'lsa, ko'rsatilgan ikki o'zgaruvchi jamlamasidan to'rt xil keys-stadi hosil bo'ladi: - "kutubxona", "nashriy", "klassik" va "kabinet", "Kutubxona" keys-stadisi tashqi tomonidan "maydonda"gi tadqiqot natijasida tayyorlangan keys-stadiga o'xshab ketadi. Ularda korxonalar faoliyati haqida ommaviy axborot vositalarida (televideniya bilan birga) va davlat boshqaruv organlarida (statistik, nazorat, sud va h.k.) chop etilgan axborotlar keng miqyosda foydalaniladi.

"Kabinet" keys-stadilar, muallifning tadqiqotlari boshqaruv sohasidagi o'qituvchiligi va maslahatchiligida to'plagan boy tajribalariga asoslanadi.

**Keys maqsadi va vazifasiga muvofiq materialni moslash.** - Haqiqiy vaziyatlar tafsilotini tayyorlashda, odatda kompaniya, muassasa, tashkilot, raxbariyati, uning raqobatchilari olingan axborotdan foydalanishiga to'sqinlik qilish maqsadida ularning manzillarni o'zgartirishini niqoblanishini talab etadi. Ushbu holatlarda tadqiqot ob'ektining uydirma nomlaridan foydalanish mumkin, ko'rsatkich va ma'lumotlarni biroz tuzatish mumkin, ular uydirma bo'lmasligi kerak, chunki vaziyatning ko'rinish tafsiloti tubdan o'zgarib haqiqatdan farq qilishi mumkin.



Masalan, daromad hajmi va xarojatning hisobiy ko'rsatkichi sun'iy oshirilsa, tashkilotda ma'lum harakatlar uchun qandaydir zahira mavjudligi haqida xulosa qilish mumkin bo'ladi, ammo haqiqatda buni bajarib bo'lmaydi. Keys muallifi, vaziyat tarixini o'rganishni taklif etishi mumkin, ya'ni ushbu vaziyat qo'yilgan o'quv maqsadlari talablariga mos kelishi kerak.

**Keys matni va unga qo'yiladigan savollarini texnik tuzish.** - Haqiqiy vaziyatlarning tafsilotidan tashqari, izchillik bilan haqiqatga yaqin vaziyatni tasvirlash tajribasiga ega bo'lgan muallifning ijodiy hayoti asosida ham vaziyatni ifodalash mumkin. Ammo, ko'pchilik hollarda bunday keyslar tahsil oluvchilarga yoqmaydi, ular haqiqiy, chuqur ma'noga ega bo'lgan, aniq va to'liq axborotlarni talab etadilar. Ular eng avvalo haqiqiy vaziyatga o'zlarining foydali va bu jarayonlarga tegishli ekanligini his etishni xohlaydilar, o'z bilim va malakasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Keys usulni qo'llash bilan mashqlar bajarishni farqlay olish kerak. Mashqlarni bajarish yuzaki tafsiloti haqiqiy yoki uydirma bo'lgan voqeani eslatishi mumkin. Ammo, mashqni bajarish maqsadi bilan keys-stadi tadqiqotlari turlicha. Matematik ko'rinishdagi misol, masala, mashqlar tahsil oluvchilarni maxsus kontseptsiya, texnika yoki printsiplarni qo'llashni o'rganish uchun material hisoblanadilar. Vaziyat esa, tahsil oluvchilarga keng qamrovli malakalarni egallashga yordam berish uchun qo'llaniladi. Mashq yoki masalani bajarishda bitta echim va bu echimning bitta yo'li mavjud bo'ladi, vaziyatda esa juda ko'p echim va echimning muqobil yo'lchalari mavjuddir.

Vaziyatni shunday ifodalash mumkinki u tahsil oluvchilarga maxsus analitik usulni qo'llash yoki muammoga maxsus usul bilan yaqinlashish imkoniyatini yaratsin. Keys usulning asosiy vazifasi – bu tahsil oluvchilarni tarkiblashtirilmagan muammolar majmuasini echishni o'rgatishdan iborat, ushbu turdagi muammolarni muayyan analitik usul yoki yo'l bilan echib bo'lmasligi aniq. Shuning uchun, o'qituvchi tahsil oluvchi oldiga aniq vazifa qo'yishi lozim: yoki masalani echish yoki keys-stadini bajarish. Buning uchun berilgan topshiriq bo'yicha o'qituvchi tahsil oluvchining nuqtai nazari bilan o'zinikini solishtiradi va zaruriyat bo'lsa, tahsil oluvchi tushunchasiga tuzatish kiritadi.

Vaziyatlar "jonsiz", "jonli" yoki qandaydir o'rtacha bo'lishi mumkin. "Jonsiz" vaziyatda, vaziyatning barcha axboroti tahsil oluvchilarga tahlilning boshida taqdim etiladi. Vaziyat tirik bo'lishi uchun, axborot vaziyat o'zgarishi bilan qo'shimcha berilib boriladi, ya'ni

vaziyatni to'la o'rganish davomida qandaydir ma'lumotlar beriladi. Bu esa vaziyatni haqiqiy o'zgarib borishini ta'minlaydi. Ba'zi keys-stadilarda bir tashkilotning o'zida, bir vaqtning o'zida paydo bo'lgan muammolar, vaziyatlarning turlicha talqini taqdim etilishi mumkin. Bunday holatlarda tahsil oluvchilarda mazkur tashkilot va uning muammolari haqida ma'lumot to'plab, o'zlarining juda murakkab javoblari va echimlarini ishlab chiqishga imkoniyat yaratiladi.

Vaziyatning "jonli" shakli ikki turli bo'lishi mumkin. Birinchi turda, tashkilot a'zosi mavjud vaziyatni umumiy tarzda ifoda etadi. Tashkilotdagi aniq holat va uning muammolarini aniq tassavur etish uchun, tahsil oluvchilar o'qituvchiga bir necha qo'shimcha savollar berishlari zarur bo'ladi. Tabiiyki, bunday keyslarning har biri, ularning ko'rilish vaqti va joyiga ko'ra farq etadi. Ikkinchi turi, oddiy keys – usuldagidek, vaziyatni oddiy yozma tafsilot ko'rinishida taqdim etadi. Tahsil oluvchilarda haqiqiy vaziyatga jalb etilish uchun, faqat o'zlariga foydali axborotlarni to'plash imkoniyati beriladi. Ushbu turli "jonli" vaziyat, o'rganishning boshqa usuli – loyihalashga yaqinlashadi. Ularning asosiy farqi tashkilot va tahsil oluvchi o'rtasidagi munosabatning xarakteridadir. Loyihalash odatda tashkilot a'zolariga faoliyat rejasini taklif etuvchi tahsil oluvchilar guruhini jalb etadi. "Jonli" vaziyat, asosan tashkilotdan axborot manbasi sifatida foydalanishga imkon berishi mumkin. Tahsil oluvchilarning qiziqishi oshgani sari ta'lim imkoniyati oshib boradi. Bundan tashqari, bu tahsil oluvchilarda axborotni izlash, olish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish imkoniyatlarini yaratadi. "Jonli" vaziyatlar, ularni tadqiq etishning yuqori darajadagi malakalarini talab etadilar, bunday malakaga esa quyi kurs tahsil oluvchilari ega bo'lmaydilar. Ko'pchilik o'qituvchilar ushbu turli vaziyat yo'riqnomasini an'anaviy keys – kurs va loyihalash orasidagi ko'priksifatida foydalanadilar.

**Keys aprobatsiyasi (sinab ko'rish).** Muayyan vaziyatning tahlili sifati va auditoriyada uni muhokama qilishda tahsil oluvchilarni jalb etish darajasi ushbu usulni qo'llashda alohida ahamiyat kasb etadi. So'zsiz, o'qituvchi qanchalik mahoratli bo'lmasin, u o'z yutug'ini auditoriya bilan baham ko'rishga majburdir. Shuning uchun, tahsil oluvchilar keys-stadini qo'llab o'tkaziladigan mashg'ulotlarga tegishli ravishda tayyorlanishi juda muhimdir.

Muayyan vaziyat usuli aprobatsiyasi doirasida tahsil oluvchining keys bilan ishi quyidagilardan iborat:

- keys-stadini individual tahlil qilish;

- keys-stadini kichik guruhda tahlil qilish;
- keys-stadini auditoriyada o'qituvchi bilan muhokama qilish.

Aprobatsiyada keys-stadi bilan tanishishni bir necha bosqichda o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Birinchi marta butun keys-stadini juda tez o'qib chiqish kerak. Bunda o'qish tezligi, uni qayta aytib berish imkoniyati bilan aniqlanishi zarur.

Birinchi o'qish davomida, tahsil oluvchi qanday keys-stadi bilan ishlayotgani va keys-stadi umumiy mavzusi hamda mazmunini tushunishi lozim. Keys-stadining tarkibi va mantiqiga alohida e'tibor qaratish lozim, bu esa keyinchalik matn bo'yicha tushuntirish va havolalarga qaytishga yordam beradi. Agar tahsil oluvchi nima uchun aynan shu keys-stadi berilganini tushunib etsa, unda unga o'qituvchi auditoriyada qo'yishi mumkin bo'lgan savollarni aniqlashi oson bo'ladi. Birinchi o'qish tahsil oluvchini kichik guruhda ishlashga tayyorlashi lozim, u erda tahsil oluvchi boshqalar bilan o'rtoqlashishi mumkin.

Keysning ikkinchi o'quvi, ancha diqqat va e'tiborli bo'lishi lozim, uning tezligi esa o'qilganga nisbatan anglashni amalga oshirish orqali belgilanadi. Katta keys-stadi uchun bu ikki soatdan to'rt soatgacha davom etishi mumkin. Keys-stadining tahlili, aynan shu bosqichda baholanadi. Buning uchun, tahsil oluvchi barcha muhim dalillarni tahlil etishi va ularni baholashdan ajratishi lozim. Tahlil, dalillarni topish, muammo qismlarini hamda ularni o'zaro bog'liqliligini aniqlashni o'z ichiga oladi. Samarali tahlil jarayonida ungacha ko'zga tashlanmagan ba'zi bir yangi hodisalar (narsalar) aniqlanishi mumkin. Dalil va voqealar tahlili tahsil oluvchilarga o'z qarorlarini tasdiqlash uchun yordam berishi kerak. Bu tahsil oluvchidan originallik va ijod talab qiladi. Ko'pchilik hollarda tahsil oluvchilar tahlil o'rniga dalil va voqealarni baholashga o'tib ketadilar. Ammo haqiqiy baholash, faqat puxta tahlildan so'nggina amalga oshirilishi mumkin.

Tahsil oluvchi ikkinchi o'qish davomida muammoga etib borishi kerak deb faraz etiladi. Bu oson ish emas. Tahsil oluvchi, muammo istak va natija orasidagi nomuvofiqlikda ekanligini tushunishi lozim. Muammolar faqat moddiy asosga (korxonalar, mashinalar, pullar, baholar va boshqalar) ega bo'lishi mumkin emas. Ular doimo inson va uning hatti-harakati bilan bog'liq bo'ladilar. Bu ko'pchilik hollarda tashkilot rahbariga tegishli, agar u keys-stadi "qahramoni" sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi o'qish tahsil oluvchiga o'qituvchi baholaydigan ya'ni qabul qilinadigan echimning asoslanganligini ta'minlaydi. Buning uchun tahsil oluvchi dalil va voqealar ketma-ketligidan iborat zanjir tuzishi

zarur. Undan tashqari u sxema va jadvallarni diqqat bilan kuzatib, ularda tushintirilmagan vaziyatlarni, iboralarni topa olishi kerak.

**Keys-stadini uchinchi o'qishi yakuniy hisoblanadi.** Buni mashg'ulotdan oldingi kunning kechasi bajarish yaxshidir. Keys-stadini avval boshlanishini o'qish, so'ng oxiridan boshlab hammasini oldinga "qaytarib" dalil va voqealarni kichik guruhda muhokama qilgandan keyin, qayta tekshirish va aniqlash foydadan xoli bo'lmaydi.

Keys-stadi bilan ishlashning ushbu bosqichi, keys-stadining jiddiy ma'naviy tahlilidan va ushbu tahlilni auditoriyada taqdim etishning samarali shaklini aniqlashdan iborat. Shuni ta'kidlash lozimki, ko'pchilik hollarda keys-stadi muhokamasi muammo, muqobil echimlar va tavsiyalar atrofida kechadi. Keys loyihasini birinchi muhokamasida o'qituvchi tahsil oluvchining har bir bosqichda sarf etgan vaqtini qayd etadi. Qo'shimcha axborotlar bilan ta'minlashning murakkabligi, uni o'qish qiyinchiliklari, rejalashtirilgan bilim va malakalarni o'zlashtirishdagi foydalilik darajasini aniqlaydi. Shu bilan birga fan bo'yicha rejalashtirilgan mavzularning keys loyihasida to'la qamrab olinganligi tekshiriladi.

Keys matnining oxirgi ko'rinishini shakllantirish (bosqichlar bo'yicha yo'riqnoma bilan birgalikda). Ushbu bosqichda aprobatsiya natijalari bo'yicha kiritilgan kamchiliklarni hisobga olib keysning tuzatilgan matni tayyorlanadi. Keys ustida tahsil oluvchilar bilan ishni tashkil etish uslubini yoritishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu uslubiyot kelajakda o'qituvchi bo'lmoqchilar uchun juda foydali bo'ladi.

**1-keys.** Ona tili darsida o'qituvchi o'quvchilarga: "O'rtog'ingdan ko'chirma!", "O'zing yoz, birovlarning daftariga qarama!", "Obbo, ko'chiradigan odamingni ham topibsanmi-a! Uning o'zi xatto ko'chirib olishni ham qoyillata olmaydi-yu!" singari zaharxanda so'zlar bilan bir necha bor qattiq tanbeh berdi.

Boshqa sinfdan esa o'qituvchi darsiga yo'l-yo'lakay, albatta, ammo ta'sirli qilib: "Bolalar bir-biringizdan berkitmanglar, bu yaxshi emas, hech kim sizlardan ko'chirayotgani yo'q!", - dedi.

Savollar:

Ta'lim jarayonida individual nazorat topshiriqlarini har bir o'quvchi mustaqil bajarishi lozim.

1. Birinchi o'qituvchining o'quvchilarga bu boradagi yondashuvi to'g'rimi? Pedagogik talabni shunday tarzda qo'yish qanchalik to'g'ri?

2. Ikkinchi o'qituvchi tomonidan pedagogik talab buzilmoqda. O'qituvchining xatti-harakatini oqlash mumkinmi?

Talabalarga tavsiya etiladigan material:

“Pedagogik talab” va uning mohiyatini yoritishga oid materiallar.

Talabalar uchun ko’rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko’proq dahldor bo’lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga uring.
5. Echimni bayon eting.

### **Keysni echish jarayoni:**

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko’proq dahldor bo’lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.
5. Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

### **O’qituvchining echimi**

1. Birinchi o’qituvchi tomonidan garchi pedagogik talab qo’yilayotgan bo’lsa-da, biroq, bu talabning yuqoridagi kabi ifodalash mumkin emas. Aslida o’qituvchining yondashuvi pedagogik talabni ifodalashi lozim. Ammo qo’pollik, qo’rslik bilan qo’yilgan pedagogik talab hech qanday tarbiyaviy ahamiyat kasb etmaydi, aksincha, ta’sir ko’rsatadi. Qolaversa, o’qituvchining yondashuvi bilan o’quvchilarda bir-birlariga nisbatan ishonchsizlik, bir-birini hurmat qilmaslik kabi sifatlar qaror topishiga zamin yaratib beradi.
2. Bir qaraganda ikkinchi o’qituvchi tomonidan pedagogik talab buzilmoqda. Ammo, o’quvchilarga nisbatan xayrixohlik, samimiylik o’quvchilarga aksincha ta’sir ko’rsatadi. O’qituvchining o’zlariga nisbatan xayrixohligini his etgan o’quvchilar pedagogik talabga zid ish qilmaslikka harakat qilishadi.

**2-keys.** 1. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakllarni aniqlash.

2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali metodlarni tanlash.

3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiya vositalari belgilash.

### **Talabalar uchun metodik ko'rsatmalar**

1. Tegishli adabiyotlardan shakl, metod va vosita tushunchalari qanday ma'no anglatishini yodga oling.

2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari va shaxs ma'naviyatini shakllantirish jarayonlarining mohiyatini chuqur o'rganing.

3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalar aniqlang.

4. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalarini tizimlashtiring.

5. "Ko'zgazma" metodi yordamida oila tarbiyasining talabalar ma'naviyatini yuksaltirishdagi samarali shakl, metod va vositalari asosida plakat ishlang.

### **Keysni echish jarayoni:**

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi

**O'quvchilar faoliyatini samaradorligini ta'minlash uchun ularning e'tiborlariga quyidagi jadvallarning taqdim etish maqsadga muvofiqdir.**

**Yakka tartibda ishlash jarayonidan foydalanish uchun**

<b>Mavzuning ahamiyati</b>		
<b>Interfaol metodlarning ta'limiy jihatlari</b>	<b>№</b>	<b>Interfaol metodlarning tarbiyaviy jihatlari</b>

## **Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari diagnostikasi metodikasi**

Ushbu metodika yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan psixodiagnostik chora – tadbirlar va kasbga yo'naltirish ishlarida keng qo'llanadi. Uni individual tarzda ham, guruhda ham o'tkazish mumkin.

Ko'rsatma: quyidagi savollarga javob bering, savolga «ha» deb javob bersangiz tegishli tartib raqami oldiga «Q» belgisini, «yo'q» deb javob bersangiz «-» belgisini qo'ying.

Savollar.

1. Doim suhbatlashib turadigan do'stlaringiz ko'pmi?
2. Ko'p hollarda do'stlaringizni o'z fikringizga og'dira olasizmi?
3. Do'stlaringizdan biri sizni ranjitsa, uzoq vaqt xafa bo'lib yurasizmi?
4. Murakkab vaziyatlarda o'zingizni o'nglab olishingiz doim qiyin kechadimi?
5. Har xil yangi odamlar bilan tanishishga intilasizmi?
6. Ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanish sizga yoqadimi?
7. Vaqtingizni odamlar bilan emas, ko'proq kitob o'qish bilan yoki boshqa ishlar bilan o'tkazishni yoqtirishingiz rostmi?
8. Biror maqsadga erishish yo'lida oldingizda to'siqlar paydo bo'lsa, niyatingizdan tezda voz kechasizmi?
9. Yoshi sizdan ancha katta bo'lgan odamlar bilan oson aloqa o'rnatish olasizmi?
10. Do'stlaringiz bilan har xil o'yinlar, ko'ngilochar tadbirlarni uyushtirishni yaxshi ko'rasizmi?
11. Yangi jamoaga qo'shilib olishingiz qiyinmi?
12. Bugun bajarilishi mumkin bo'lgan ishlarni tez – tez ertaga qoldirib turasizmi?
13. Notanish odamlar bilan oson aloqa o'rnatish olasizmi?
14. Do'stlaringiz sizning fikringizga monad ish qilishini talab etasizmi?
15. Siz uchun yangi bo'lgan jamoaga qo'shilib ketishingiz qiyinmi?
16. Do'stlaringiz o'z majburiyatlarini, vazifalarini bajarmaganda, ular bilan «san - man»ga bormasligingiz rostmi ?
17. Imkoniyat bo'ldi deguncha yangi odam bilan tanishishga, suhbatlashishga intilasizmi?
18. Muhim masalalarni hal etishda, ko'pincha tashabbusni o'z zimmamizga olasizmi?
19. Atrofdagilar g'ashingizga tegadimi, yolg'iz qolishni xohlaysizmi?
20. Notanish joyda o'zingizni tez o'nglab ololmasligingiz rostmi?



21. Doim odamlar orasida bo'lish sizga yoqadimi?
22. Boshlagan ishni oxiriga etkaza olmasangiz asabiylashasizmi?
23. Biror yangi odam bilan tanishmoqchi bo'lganingizda, sizda uyalish, tortinish hislari paydo bo'ladimi?
24. Do'stlaringiz bilan ko'p so'xbatlashishdan charchaysizmi?
25. Jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlarni yoqtirasizmi?
26. Do'stlaringiz manfaatlariga tegishli masalalarni hal etishda tez – tez tashabbuskor bo'lib turasizmi?
27. Siz unchalik yaxshi tanimaydigan odamlar davrasida o'zingizni ishonchsiz his etasizmi?
28. Kamdan kam hollarda fikringiz to'g'ri ekanligini isbotlashga urinasizmi?
29. Sizningcha, notanish odamlar guruhiga ko'tarinki kayfiyatni olib kirish osonmi?
30. Ijtimoiy faoliyatda ishtirok etasizmi?
31. Tanishlaringiz soni ozgina bo'lishiga intilasizmi?
32. Do'stlaringiz sizning fikringizga qo'shilmasa, baribir uni isbotlashga urinasizmi?
33. Notanish odamlar jamoasida o'zingizni erkin his etasizmi?
34. Turli tadbirlarni tashkil etishga jondildan kirishasizmi?
35. Ko'pchilik oldida so'zlayotganingizda o'zingizni erkin his etasizmi?
36. Turli uchrashuvlarga tez – tez kech qolib turasizmi?
37. Do'stlaringiz sizning fikringizga qo'shilmasa, baribir uni isbotlashga urinasizmi?
38. Ko'pincha do'stlaringiz diqqat – e'tibori markazida bo'lib turasizmi?
39. Notanish odamlar bilan suhbatlashganingizda ko'pincha o'zingizni noqulay his etasizmi?
40. Do'stlaringizning katta davrasida o'zingizni ishonchli his etishingiz rostmi?

Natijalarni qayta ishlash.

1. Sinaluvchilar javoblarini kalit bilan solishtirish va o'zaro mos javoblar miqdorini aniqlash kerak.

KALIT

Kommunikativ moyillik				Tashkilotchilik moyillik			
1. Q	3. -	5. Q	7. -	2. Q	4. -	6. Q	8. -
9. Q	11. -	13. Q	15. -	10. Q	12. -	14. Q	16. -
17. Q	19. -	21. Q	23. -	18. Q	20. -	22. Q	24. -
25. Q	27. -	29. Q	31. -	26. Q	28. -	30. Q	32. -
33. Q	35. -	37. Q	39. -	34. Q	36. -	38. Q	40. -

2. Kommunikativ moyilliklar koeffitsenti  $G'KkG'$  ni va tashkilotchilik moyilliklari  $G'KtG'$  ni quyidagi formulalar orqali aniqlash.

$Kk$  q o'zaro mos javoblar miqdori  $X$  0,05

$Ktq$  o'zaro mos javoblar miqdori  $X$  0,05

Olingan natijalar 0 va 1 oralig'ida joylashadi. Ko'rsatkichning 1ga yaqin bo'lishi kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari yuqori ekanini, 0 ga yaqin bo'lishi esa past ekanligini ko'rsatadi.

Ko'rsatkichlarni baholash uchun quyidagi jadvaldan foydalaniladi.

Kk	Kt	Baho
0,1 – 0,45	0,2 – 0,55	1
0,46 – 0,55	0,56 – 0,65	2
0,56 – 0,65	0,66 – 0,70	3
0,66 – 0,75	0,71 – 0,80	4
0,76 – 1,00	0,81 – 1,00	5

*Baholar tavsifi.*

1. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari sust.

2. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari o'rtacha darajaga etmaydi. Tashabbusni o'z zimmasiga olmaydigan, vaqtni tanholikda o'tkazishni hush ko'radigan, notanish odamlar bilan suhbatlashayotganda, ko'pchilik oldida biror narsani aytib berayotganda o'zini noqulay his etadigan, xafagarchilikni og'ir o'tkazadigan odam.

3. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari o'rtacha. Odamlar bilan aloqa qilishga intiladigan, tanishlari doirasini chegaral qo'ymaydigan, o'z fikrini himoya qiladigan odam. Ammo uning bu hususiyatlari barqaror emas.

4. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari yuqori darajada. Yangi sharoitda o'zini yo'qotib qo'ymaydigan, tanishlari doirasini doim kengaytirishga intiluvchi, muloqotda tashabbuskor, ijtimoiy faoliyatda jonbozlik bilan ishtirok etadigan, murakkab vaziyatda mustaqil qaror qabul qila oladigan odam.

5. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari juda yuqori. Kommunikatsiya va tashkilotchilik ehtiyoji bo'lib qolgan, doim uni qondirishga intiladigan, yangi jamoada, yangi muhitda o'zini juda erkin tutadigan, tashabbuskor, o'z fikrini oxirigacha himoya qiladigan, turli o'yinlarni, tadbirlarni uyushtirishni yaxshi ko'radigan odam.

Методика манбаси: Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога: Учеб. Пособие, В 2кн. – 3 – е. – М.: Гуманитар. Изд. Центр ВЛАДОС, 2000. – Кн. 1: Система работы психолога с детьми разного возраста. 374 – 379 б

### **O'quv motivini baholash metodikasi**

Mazkur metodika 6 – 8 yoshdagi bolalarning o'quv motivatsiyasi, maktabga bo'lgan munosabati, o'qish bilan bog'liq vaziyatga nisbatan emotsional reaksiyasini aniqlashga qaratilgan. (metodika N.G.Luskanova tomonidan taklif etilgan).

Anketa savollari.

1. Senga maktab yoqadimi yoki unchalik yoqmaydimi?
  - unchalik yoqmaydi.
  - yoqadi
  - hecham yoqmaydi.
2. Ertalab uyg'onib, doim xursandchilik bilan maktabga kelasanmi yoki ko'pincha uyda qolishni istaysanmi?
  - ko'pincha uyda qolishni istayman
  - ba'zida borishni, ba'zida qolishni istayman
  - xursandchilik bilan maktabga boraman
3. Agar o'qituvchi ertaga xohlaganlar kelib, xohlaganlar

kelmasligi mumkin desa, sen maktabga borarmiding?

- bilmadim
- uyda qolardim
- maktabga borardim

4. Biror bir dars bo'lmasligi senga yoqadimi?

- yoqmaydi
- ba'zida yoqadi, ba'zida yoqmaydi
- yoqadi

5. Uy vazifalaring yo'q bo'lishini xohlarmiding?

- xohlardim
- xohlamasdim
- bilmadim

6. Maktabda faqat tanaffus bo'lishini xohlarmiding?

- bilmadim
- xohlamasdim
- xohlardim

7. Sen ota – onangga maktab hakida ko'p gapirib berasanmi?

- ko'p gapirib beraman
- kam gapirib beraman
- umuman gapirib bermayman.

8. O'qituvching o'rniga boshqa mehribonroq o'qituvchi kelishini xohlarmiding?

- bilmadim
- xohlardim
- xohlamasdim

9. Sinfda o'rtoqlaring ko'pmi?

- kam
- ko'p
- umuman yo'q

10. Senga sinfdoshlaring yoqadimi?

- yoqadi
- unchalik yoqmaydi
- yoqmaydi.

Eslatma: mazkur anketa individual tashxis davomida ham, guruhiy tashxis maqsadida ham qo'llanilishi mumkin.

Natijalarni qayta ishlash uchun quyidagi kalitdan foydalaniladi.

Savollar	1-javob uchun ball	2-javob uchun ball	3-javob uchun ball
1	1	3	0
2	0	1	3
3	1	0	3
4	3	1	0
5	0	3	1
6	1	3	0
7	3	1	0
8	1	0	3
9	1	3	0
10	3	1	0

Natijalarni baholash:

1. 25 – 30 ball. O'quv motivatsiyasi yuqori. Bunday bolalar o'zining bilish motivi kuchli ekanligi, barcha topshiriqlarni yaxshi bajarishga intilish bilan ajralib turadi.

2. 20 – 24 ball. O'quv motivatsiyasi o'rtacha. Bunday o'quvchilar guruhi o'quv faoliyatini ancha muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bolalardan tashkil topadi.

3. 15 – 19 ball. Maktabga munosabat ijobiy, ammo bolani ko'proq o'qish bilan bog'liq bo'lmagan tomonlar qiziqtiradi. Bunday o'quvchilar maktabda o'zlarini yaxshi his etadilar, biroq maktabga asosan o'rtoqlar, o'qituvchilar bilan suhbatlashishi, chiroyli o'quv qurollariga ega bo'lish uchun boradilar.

4. 10 – 14 ball. O'quv motivatsiyasi past. Bunday bolalar maktabga borishni xohlamaydilar, darslarda bekorchi narsalarda bilan shug'ullanib, o'ynab o'tiradilar.

5. 10 balldan past. Maktabga nisbatan salbiy munosabat, dezadaptatsiya moslashmaganlik mavjud. Bunday o'quvchilar o'quv faoliyatini bajarishga qiynaladilar, tengdoshlar va o'qituvchilar bilan bo'lgan munosabatda muammolarga duch keladilar, ularda ayrim hollarda nerv – psixik salomatlikning suzilishi kuzatiladi.

Eslatma: Anketani ikki usulda qo'llash mumkin.

1 – usul. Savollar eksperimentator tomonidan o'qib eshittiriladi va javob variantlari taqdim etiladi, bolalar o'zi tanlangan

javobni yozib qo'yadi.

2 – usul. Savollar har bir bolaga alohida – alohida yozma ko'rinishda tarqatiladi, bolalar tegishli javoblarni belgilaydilar.

Metodika haqida qo'shimcha ma'lumot: so'rovnomadagi savollar 200 nafar 6 – 8 yoshdagi o'quvchi bilan o'tkazilgan so'rov asosida bolalarning maktabga, o'qish jarayonida bo'lgan munosabatini to'liqroq aks ettiruvchi savollar sifatida ajratib olingan.

Metodika manbasi: Ratanova T.A., Shlyaxta N.F. Psixodiagnosticheskie metodo' izucheniya lichnosti: Uchebnoe posobie. – Pererabotannoe i dopolnennoe izdanie posobiya: T.A.Ratanova, L.I. Zolotareva, N.F.Shlyaxta «Metodo' izecheniya i psixodiagnostika lichnosti» - M.: Moskovskiy psixologo – sotsialno'y institut: Flinta, 1998. 60 – 64 betlar.

## **Ta'lim mazmuni va uni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish mavzisiga oid glossariy:**

**O`quv rejası** - davlat hujjatidir. Unga barcha umumta`lim maktablari so`zsiz amal qiladi. Bu hujjatda sinflar bo`yicha o`rganilishi lozim bo`lgan o`quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o`quv soatlari ko`rsatiladi.

**O`quv fan dasturi** - har bir alohida fan uchun o`quv dasturi tuziladi. Dastur o`quv rejasiga asoslanadi. Fanning maqsadidan, o`quv rejası bo`yicha ajratilgan soat va bilim hajmi uning tizimi mavjud jamiyatning g`oyaviy-siyosiy yo`nalishini o`zida aks ettiradigan davlat hujjatidir.

**O`quv adabiyotlari** – muayyan ta`lim turi (yo`nalishi yoki mutaxassisligi) o`quv rejasida qayd etilgan fanlar bo`yicha tegishli o`quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o`zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan (shu jumladan, xorijiy tarjimalar) manba bo`lib, ikki xil shaklda tayyorlanadi

**An`anaviy (bosma) o`quv adabiyotlar** – ta`lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik hususiyatlari, ma`lumotlar hajmi, shriftlari, qog`oz sifati, muqova turi va boshqa ko`rsatkichlarni hisobga olgan holda qog`ozda chop etiladigan manba

**Elektron o`quv adabiyotlar** – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma`lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo`lgan manba

**Darslik** – davlat ta`lim standarti, o`quv dasturi uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g`oyasi singdirilgan, muayyan o`quv fanining mavzulari to`liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o`zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta`lim yo`nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

**O`quv qo`llanma** – darslikni qisman to`ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo`yicha tuzilgan va asoslarining chuqur o`zlashtirilishini ta`minlovchi, ayrim bob va bo`limlarni keng tarzda yoritishga yoki amaliy mashq va mashg`ulotlar echimiga mo`ljallangan nashr

**Lug`at** – aniq bir tartibda joylashgan so`zlar (yoki so`z birikmasi, idiomalar va hokazo) to`plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi to`g`risida ma`lumot beruvchi yoki so`zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi nashr

**Izohli lug`at** – so`zlarning mazmunini izohlaydigan, har bir so`zning grammatik, etimologik va stilistik tavsifi berilgan, ularni qo`llashga oid misollar va boshqa ma`lumotlar keltirilgan, qo`shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

**Ma'lumotlar to'plami** – foydalanishga qulay shaklda yaratilgan muayyan fanni yoki ta'lim yo'nalishini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan, isbot talab qilmaydigan ma'lumotlar, ilmiy ko'rsatkich va o'lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, amaliy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi qisqa ma'lumotlardan tashkil topgan nashr.

**Leksiyalar kursi** – fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan nashr, lektsiyalar kursining nomi tegishli fan nomi bilan ataladi.

**Sharh** – jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadigan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, bahsga loyiq asarlarni, g'oyalarni, fikrlarni va ta'riflarni izohlovchi, muayyan masalalar echimini ko'rsatuvchi, keng ommaga mo'ljallangan qo'shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

**Dayjest** – ilmiy, ilmiy-uslubiy, o'quv, davriy, adabiyotlar, hukumat va turli tashkilotlar faoliyatiga tegishli qonunlar qarorlar, nizomlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, sohalarga oid ma'lumotlar to'plami sifatida foydalaniladigan doimiy nashr.

**Kompetentsiya yondashuvi**- bu ta'lim natijasiga qaratilgan yondashuv bo'lib, natijada olingan ma'lumotlarning yig'indisi emas, balki shaxsning turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati hisobga olinadi.

**Kompetentsiya yondashuvi** -ta'lim natijalari ta'lim tizimidan tashqarida muhim deb tan olinadigan yondashuvdir.

**Ta'limning ma'nosi** - o'quvchilarda ijtimoiy tajribadan foydalanish asosida turli soha va faoliyat turlari bo'yicha muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantirish, uning elementi o'quvchilarning shaxsiy tajribasi;

**Kompetentsiya** “Competence” so'zi “to compete” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjima qilinsa “musobaqalashishga layoqatlilik” ma'nosida keladi.

**Kompetentsiya** — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

**Bilim** — o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish

**Ko'nikma** — o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay

**Malaka** — o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;



**Kompliment** - bu insonning ijobiy sifatlarini bir oz kuchaytirib aytiladigan so'zlardir.

**Metodlar** – fan predmetining mohiyatini yoritish va materiallar tuplash uchun foydalaniladigan maxsus usullar va vositalar.

**Standartlashtirilgan kuzatuv** – kachon, Kim va kimni kuzatish kat'iy belgilanadi va maxsus dastur doirasidan chikmay, kuzatuv olib boriladi.

**Modellashtirish** – kuppina usullar yordamida urganilyapgan xodisaning tub mohiyati ochilmaganda kullaniladigan usul bulib, usha xodisaning umumiy xossai yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, usha model asosida tadkikotchini kiziktirgan jixat urganiladi va xulosalar chikariladi.

**Mantikiy modellar** – inson akli va tafakkuri jarayonlari va konunlarini xisoblash mashinalari ish tamoyillari bilan kiyoslash orkali tuzilgan goya va simvollar ishlatiladi.

**Sotsial yoki ijtimoiy muxit** – insonning anik maksadlar va rejalar asosida faoliyat kursatadigan dunyosi.

**Shaxs** – ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning maxsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bulmish individdir.

**Jamiyat** – ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal kurinishi.

**Tarbiya** – shaxsning uz iva uz sifatlari tugrisidagi tasavvurlarning shakllanish jarayoni.

**Shaxsning yunalganligi** – ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning xayot faoliyatini yunaltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turgun, barkaror motivlar majmuiga ega bo'lishlik.

**Ideallar** – shaxsning xozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashkari orzu umidlari, ular ongida bor, lekin xar doim xam amalga oshmaydi.

**E'tiqod** –insonga uz karashlari, tamoyillari va dunyokarashiga mos tarzda yashashiga imkon beradigan shaxsning ongli yo'nalishi

**Dunyoqarash** – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va goyalar majmui bulib, u shaxsni ma'lum bir kolipda, uz shaxsiy kiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib urin egallashga chorlaydi.

**Ma'rifat** – odamning tabiat, jamiyat va insonlar tugrisidagi turli bilimlari, tushunchalari, ma'lumotlari majmui bulib, uning mazmuni bevosita shaxs dunyokarashining mazmun – mohiyatini belgilaydi.

**Muloqot** – shaxsning individual rivojlanishi jarayonida namoyon buladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri.

**O'qish** – bilimlar, malaka va turli kunikmalar uzlashtiriladigan faoliyat.

**Aqliy charchash** - nerv tizimining potensial energiyasining haddan tashqari ko'p sarflanishi natijasida aqliy ish qobiliyatini pasayishi.

**Amaliy faoliyat** - insoniyatning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida tabiatni va ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyati.

**Bilish ehtiyojlari** - bilimlarni Yoki fan asoslarini o'zlashtirishga nisbatan qondirilmagan muhtojlikni sezishdan iborat faoliyat motivi.

**Bilishga qiziqish** - shaxsning voqelikdagi narsa va hjo disalarni, ularning sifat hamda xususiyatlarini, o'zaro munosabatlari mohiyatini, shuningdek, turli qonuniyatlarni bilib olishga nisbatan doimiy barqaror yo'nalishidan iborat individual xususiyati.

**Zehni o'tkirlik** - yangi Yoki murakkab nazariy hamda amaliy masalalarni hal qilishning to'g'ri yo'llarini tez topa olishdan iborat aql sifati.

**Ijtimoiy malakalar** - ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish va jamoa orasida o'zini tuta bilish malakalari.

**Individual tajriba** - har bir shaxsning o'z hayoti davomida orttirgan tajribasi.

**Industrial psixologiyasi** - mehnat psixologiyasining psixologik omillarning sanoatdagi rolini o'rganuvchi, psixologiyaning qonuniyatlariga asoslanib, mehnat unumdorligini oshirish masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus sohasi.

**Inertlik** - faoliyatda sustkashlik ko'rsatishdan iborat salbiy xarakter xislati.

**Intizomlilik** - muayyan jamoaning barcha a'zolari uchun majbur bo'lgan qat'iy tartib va xulq-atvor qoidalariga tizimli ravishda rioya qilishdan iborat bo'lgan ijobiy xarakter xislati.

**Intizomsizlik** - jamoat joylari, mehnat, o'qish Yoki oila jamoasining tartib qoidalariga tizimli ravishda rioya qilmaslik Yoki ularni buzishdan iborat salbiy xarakter xislati.

**Introverisiya** - shaxsning o'z fikrlari, sezgilari, kechinmalari va qis-tuyg'ulariga tayanish.

**Iroda kuchi** - shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadining aniqligi, uni amalga oishirish uchun intilishi, maqsad yo'lida ma'lum bir qaror qabul qilish tezligi va uni o'z vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan iroda sifati.

**Irodaviy zo'r berish** - maqsadni amalga oshirish uchun ob'ektiv va sub'ektiv qiyinchiliklarni bartaraf qilishda namoyon bo'ladigan nerv hamda iroda kuchi.

**Irodasi bo'shlik** - shaxsning biror faoliyat turini bajarish uchun o'zini majbur qila olmaslik Yoki o'z harakatlarini o'z maqsadlariga bo'ysundira olmaslikdan iborat salbiy xarakter xislati.

**Ixtisoslashgan mehnat** - muayyan kasbga doir maxsus bilimlar, ko'nikmalar, malaka va madaniy odatlarning tarkib topishi hamda rivojlanishini talab qiladigan mehnat.

**Ish qobiliyati** - shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jismoniy hamda psixik funksiyalari yig'indisi.

**Ish usullarini tasvirlash** - mehnat psixologiyasi sohasidagi ilmiy tekshirish ishlarida alohida ish usullari Yoki malakalarni ularning bajarilish tartibi bo'yicha tasvirlashdan iborat tekshirish metodi.

**Malakalarning ko'chishi** - muayyan faoliyat sohasida hosil qilingan malakalarning yangi malakalar hosil qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatishdan iborat qonuniyat.

**Malakalarning regressi** – ma'lum bir faoliyat sohasida hosil qilingan malakalarning biror sababga ko'ra, ko'p vaqt amalda ishlatilmaganligi natijasida asta-sekin so'nishidan iborat qonun.

**Malakalarning rivojlanishi** - muayyan faoliyat sohasiga doir malakalarning kundalik amaliyotda ko'p qo'llanilishi natijasida tobora o'sib, mukammalashib borishdan iborat qonuniyat.

**Matonatlilik** - shaxsning muayyan maqsadni amalga oshirish yo'lida uchraydigan har qanday ob'ektiv hamda sub'ektiv qiyinchiliklarga bardosh berib, ularni engib chiqishdan iborat irodaviy xarakter xislati.

**Mehnat** - tarixan tarkib topgan, maqsadga muvofiq yo'naltirilgan, boylik yaratishga qaratilgan ongli faoliyat turi.

**Mehnat qobiliyati** - shaxsning muayyan mehnat turini muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan jismoniy hamda psixik funksional imkoniyatlari yig'indisi.

**Mehnat madaniyati** - mehnatni to'g'ri tashkil qilishga doir bilimlar, malakalar va odatlar tizimidan iborat individual xislat.

**Mehnat malakalari** - mehnat faoliyatining ma'lum bir sohasiga doir avtomatlashgan, mustahkamlangan harakatlar.

**Mehnatsevarlik** - mehnatni xurmatlash uning har qanday turini bajarishga doim tayyor turishdan iborat xarakter xislati.

**Motiv** - odamni muayyan xatti-harakatlarga undaydigan bosh sabab.

**Motivasiya** - shaxsning nima uchun ma'lum vaqtda boshqa fikr va harakatlarni emas, faqat shu fikr va harakatni bajarishga qaror qilganligini asoslab berishi, tushuntirib berishdan iborat mantiqiy operatsiya.

**Motivlar kurashi** - shaxsning oldida bir emas bir qancha maqsadlar mavjud bo'lgan taqdirda ulardan eng muhimini tanlab olish jarayonida ro'y beradigan ikkilanishdan iborat holat.

**Mustaqillik** - shaxsning muayyan aqliy, axloqiy Yoki amaliy masalalarni hal qilishida, ayniqsa, murakkab vaziyatni baholash va maqsadga muvofiq yo'lni tanlashda o'zining mustaqil fikrlari, tamoyillari hamda e'tiqodiga ega bo'lishdan iborat irodaviy xarakter xislati.

**Mutaxassis** - shaxsning muayyan kasbga nisbatan yaroqlilik darajasi, tayyorgarlik saviyasi, muayyan faoliyat sohasida muvaffaqiyatli ishlay olish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi.

**Mutaxassislik imtixonlari** - mutaxassis sinovlarining bir qismi bo'lib, ishlab chiqarish ta'limi natijasida o'quvchilarning olgan maxsus nazariy bilimlarini tekshirish uchun o'tkaziladi.

**Passivlik** - atrofdagi narsa va hodisalarga, kishilarga nisbatan befarq munosabatda bo'lishdan va jismoniy Yoki psixik faoliyasizlikdan iborat holat.

**Prinsipiallik** - haqqoniylik va jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan o'z qarash hamda e'tiqodlarini qat'iy turib himoya qilishdan Yoki so'z bilan ishning birligidan iborat ijobiy xarakter xislati.

**Halollik** - shaxsning o'z burchi va e'tiqodlariga nisbatan sadoqatida, atrofdagi borliqqa hamda kishilarga vijdonan munosabatda bo'lishida ifodalanadigan axloqiy sifati.

**Xarakter xislati** - ijtimoiy muhit ta'sirida tarkib topgan shaxsning xatti-harakatlarida muntazam uchraydigan doimiy xususiyat va sifatlar yig'indisi.

**Xarakterning ijobiy xislatlari**- shaxsning jamiyat axloq normalari doirasidagi doimiy ijobiy xususiyatlari.

**Hasadgo'ylik** - o'zga shaxslarning mavqei, qobiliyati, iste'dodi, faoliyatidagi yutuqlari, mulki kabilarga nisbatan g'arazgo'ylik munosabatida ifodalanadigan salbiy xarakter xislat.

**SHaxsiy tajriba** - har bir individning Yoki shaxsning turmush jarayonida hosil qilgan tajribasi.

**Egoizm** - o'z shaxsiy manfaatlarini jamiyat, jamoa manfaatlaridan yuqori qo'yishga kuchli intilishda ifodalanadigan salbiy xarakter xislati.

**Qat'iylik** - xarakterning o'z vaqtida asosli va qat'iy qarorlar qabul qila olish va ularni ikkilanmasdan ijro etishga kirishishdan iborat irodaviy xislati.

**Qiziqish** - shaxsning muayyan narsa va hodisaga ega bo'lishga, bilishga faol va barqaror yo'nalishidan iborat individual xislati Yoki faoliyat motivi.

**Qobiliyat** - shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga bo'lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida hosil qilingan individual xususiyatlari yig'indisi

**Ta'lim** — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

**Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari** — ta'lim oluvchilar, voyaga etmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari.

**Masofaviy ta'lim** — ta'lim olish shakllaridan biri bo'lib, dars mashg'ulotlarining internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda masofadan turib amalga oshirilishi.

**Ta'lim bosqichi** — ta'lim turlarining tegishli ta'lim dasturi yakunlanganligini belgilovchi bosqich.

**Ta'lim dasturi** — ta'limning asosiy xususiyatlarini (ta'lim hajmi va mazmuni, undan kutilayotgan natijalar), bitiruvchilar umumiy tayyorgarligining zaruriy va etarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilishni hamda baholash darajalarini belgilaydigan me'yorlar (o'quv rejasi, taqvim reja, o'quv fan dasturi, modullar va boshqa me'yorlar) va talablar majmui.

**Ta'lim sifati** — ta'lim oluvchilar tomonidan fanlar o'zlashtirilishining davlat ta'lim standartlari va davlat talablarida belgilab qo'yilgan me'yorlarga muvofiqlik darajasi.

**Ta'lim faoliyati** — ta'lim dasturlarida nazarda tutilgan natijalarga erishish uchun ta'lim tashkilotchilari, pedagog xodimlar, ishlab chiqarish ustalari

hamda ta'lim tashkilotlarining boshqa xodimlari tomonidan ketma-ket amalga oshiriladigan harakatlar majmui.

**Ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar** — asosiy yoki litsenziya asosida qo'shimcha faoliyat sifatida ta'lim xizmatlarini amalga oshiruvchi tijorat tashkilotlari.

**O'qitishning me'yoriy muddatlari** — ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturlari va o'quv rejaları o'zlashtirilishi uchun belgilangan muddatlar;

**O'quv dasturi** — o'quv fanlarini majburiy o'zlashtirishni nazarda tutadigan, o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning mazmuni, hajmi hamda ularning mavzular, bo'limlar va davrlar bo'yicha taqsimlanishi muvofiqligini belgilaydigan hujjat.

**O'quv rejasi** — ta'lim faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan normative hujjat.

**O'quv fani dasturi** — muayyan fan bo'yicha ta'lim mazmuni, uning ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjat.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018yil, 6-son,70-modda.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2018yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. G'G' Xalq so'zi gazetasi
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son
4. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 23.09.2020 йилдаги ЎРҚ-637-сон
- 5.Ў.М. Асқарова, М. Хайитбоев, М.С. Нишнонов ПЕДАГОГИКА Тошкент-2008
6. Болотов В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе/ В.А. Болотов В.В. Сериков//Педагогика.-2003. -№10. - 8-14.
7. Смирнова Н.З., Бережная О.В. Компетентностной подход в педагогическом образовании. Учебно-методическая пособие./ Красноярск, 2012,-168 с.
8. Толипова Ж.О. Таълим технологиялари. Т. “Ўқитувчи” 2002 йил. 128 б. 9., „Universal qo'llanma” В. Mengliyev 1. Andreev A.L. Ta'limdagi kompetentsiya paradigmasi: falsafiy va uslubiy tahlil tajribasi // Pedagogika. - 2005. - 4-son. - S.19-27.
10. Zimnyaya I.A. Asosiy kompetensiyalar - ta'lim natijalarining yangi paradigmasi // Bugungi kunda oliy ta'lim. - 2003. - No 5. - B.34-42.
11. 2010 yilgacha bo'lgan davrda Rossiya ta'limini modernizatsiya qilish kontsepsiyasi: Rossiya Ta'lim vazirligining 11.02.2002 yildagi 393-son buyrug'iga ilova. - M., 2002 yil.
12. Lebedev O.E. Ta'limda kompetentsiya yondashuvi // Maktab texnologiyalari. - 2004. - 5-son.
13. Lebedeva M.B., Shilova O.N. Pedagogika universiteti talabalarining AKT kompetensiyasi nima va uni qanday shakllantirish kerak? // Informatika va ta'lim. - 2004. - 3-son. - S. 95-100.
14. PIZA-2000 xalqaro tadqiqot natijalari kontekstida rus maktabida o'qitish mazmuni va metodologiyasiga qo'yiladigan yangi talablar / A.G.Kasprjak, K.G.Mitrofanov, K.N.Polivanova va boshqalar - M .: "Universitet kitobi", 2005 yil.
15. D.I.Ruzieva – pedagogika fanlari doktori, dotsent. Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turlari bo'yicha

16. Ishmyxammedov R., Abdykodipov A., Papdaev A. Ta'limda innovatsion texnolo-giyalap. - T.: «Icte'dod», 2GG8. -18G-6.
17. Teopiya i metodika obycheniya fizike v shkole: Obhie voppoco'. I C.E.Kamenetskiy, N.C.Pypo'sheva, N.E.Vajeevckaya i dp. - M.: «Akademiya», 2GGG. -C. 239.
18. Teopiya i metodika obycheniya fizike v shkole: Chactno'e voppoco'. I C.E.Kamenetskiy, N.C.Pypo'sheva, T.I.Nocova. - M.: «Akademiya», 2GGG. -C. 368.
19. Turdiyev N.SH. Fizika. 6 sinf. - T.: «Sno'lrop», 2GG9.
20. Typcynov K.Sh. Tabiiy-ilmiy fanlapni Ukitishda modellashtipish (Monogpafiya). - T.: «Davr press», 2G18.
21. Zimnyaya I. A. Shaxsning kompetentsiyasi - ta'lim natijasining yangi sifati G'G' Ta'lim sifati muammolari. - 2-kitob G'G' XII Butunrossiya materiallari-uchrashuv. - M.; Ufa: Mutaxassislarni tayyorlashda sifat muammolari tadqiqot markazi, 2003. - B.4-13
22. Novikov A. M. Ta'lim metodikasi. M.: EGVES, 2006. - 492 b.
23. Maxmutov M. I. Ta'limning kasbiy yo'nalishi printsipi G' Zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotda ta'lim tamoyillari G'G' Universitetlararo ilmiy ishlar to'plami. - Chelyabinsk, 1985. - S.52-56
24. Chernilevskiy D. K., Filatov O. K. Oliy ta'limda o'qitish texnologiyasi: Darslik G' Ed. D.K. Chernilevskiy. - M.: Ekspeditor, 1996 yil
25. Kasb-hunar ta'limi ensiklopediyasi: 3 jildda / Ed. S. Ya. Ba-tisheva. - M., 1999 yil.
26. Tursunov K.,Sh. Tabiiy-ilmiy fanlarni ukitishda modellashtirish (Monografiya). - T.: «DAVR PRESS», 2018. -185-b.
27. Ishmuxammedov R., Abdukodirov A., Pardaev A. Ta'-limda innovatsion texnologiyalar. - T.: «Iste'dod», 2008. -180-b.
28. Bocharnikova M.A. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv: tarix, mazmun, amalga oshirish muammolari [Matn] / M.A. Bocharnikova // boshlang'ich maktab, 2009. - No 3. - B.86-92.
- 29..Samaridin Barakayevich Qorayev, Nodir Ilxomovich Tirkashev Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari
- 30.Bermus A.G. Ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish muammolari va istiqbollari // "Eidos" Internet jurnali. - 2005. - 10 sentyabr
- 31.Xutorskoy A.V. Asosiy vakolatlar va ta'lim standartlari // Eidos Internet jurnali. – 2002 yil .
32. Lebedev O.E. Ta'limda kompetentsiya yondashuvi // Maktab texnologiyalari. - 2004. - 5-son.

**XAYDAROVA SAYYORA CHINALIYEVNA**

**TA'LIM MAZMUNI VA UNI  
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV  
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**MONOGRAFIYA**

Nashriyot muharriri: Mohira YULDASHEVA  
Texnik muharrir: Baxtiyor YAKUBOV  
Sahifalovchi-dizayner: Shohida MUKUMOVA

Nashriyot litsenziyasi № 880921. 14.08.2020 y.  
Nashriyotga topshirildi 10.06.2021 yil.  
Chop etishga ruxsat berildi 15.06.2022 yil.  
Bichimi 108x84/16. Shartli bosma tabog'i 6,0.  
Adadi 100 nusxa. Buyurtma №292.

“Ziyo nashr matbaa” XK  
Guliston shahri, O‘zbekiston ko‘chasi,  
Ma’naviyat-ma’rifat markazi.

«Sirdaryo Print» MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Sirdaryo shahri, O‘zbekiston ko‘chasi, 92-uy